



O‘ZBEKISTON PREZIDENTI QATAR AMIRI VA XALQIGA HAMDARDLIK BILDIRD

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Qatar Davlati sobiq Amiri Shayx Hamad bin Xalifa Ol Soniyning vafoti munosabati bilan ta’ziya bildirish uchun 14-iyul kuni Doha shahrida bo‘ldi.



Hamad xalqaro aeroportida davlatimiz rahbarini Qatar Bosh vaziri o‘rinbosari, mudofaa vaziri Shayx Saud bin Abdulrahmon Ol Soniy va boshqa rasmiy shaxslar kutib oldi.

Shu kuni Lusail saroyida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Qatar Davlati Amiri Shayx Tamim bin Hamad Ol Soniy bilan uchrashdi.

Muloqot avvalida davlatimiz rahbari Qatar Amiriga otasi — sobiq Amir Shayx Hamad bin Xalifa Ol Soniyning vafot etgani munosabati bilan chuqur hamdardlik bildirdi.

Shayx Hamad Ol Soniy Hazratlari Qatar Davlati erishgan ko‘plab tarixiy yutuqlar, ulkan bunyodkorlik ishlari, ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi jadal islohotlar, mamlakatning xalqaro maydondagi nufuzi ortishiga ulkan hissa qo‘shgan siyosat arbobi bo‘lgani ta’kidlandi.

Shu bilan birga, ul zotning mamlakatlarimiz o‘rtasidagi yaqin do‘stlik va ko‘p qirrali hamkorlikni rivojlantirish hamda mustahkamlashdagi samarali mehnatlari alohida qayd etildi.

Shuningdek, Prezidentimiz Qatar bugungi kunda mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta’minlashdagi muhim o‘rin egallayotgani, xalqaro maydonda katta ta’sirga ega “Doha ovozi” paydo bo‘lganini e’tirof etdi.

Ikki davlat yetakchilari O‘zbekiston va Qatar o‘rtasidagi strategik sheriklikni yanada mustahkamlash, ko‘p qirrali aloqalarni yangi bosqichga ko‘tarish, dolzarb xalqaro va mintaqaviy masalalarni muhokama qildilar.

O‘z navbatida, Qatar Amiri O‘zbekiston Prezidentiga ushbu sinovli damlarda shaxsan tashrif buyurib, bildirgan samimiy hamdardligi hamda do‘stona qo‘llab-quvvatlagani uchun chuqur minnatdorlik izhor etdi.

Uchrashuv yakunida O‘zbekiston rahbari Qatar Amirini o‘ziga qulay bo‘lgan fursatlarda mamlakatimizga tashrif buyurishga taklif etdi.

Shu bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Qatar Davlatiga tashrifi yakunlandi.

O‘ZA

TOSKANA VILOYATI BILAN HAMKORLIK YANADA KENGAYTIRILADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 14-iyul kuni mamlakatimizga amaliy tashrif bilan kelgan Italiyaning Toskana viloyati gubernatori Eujenio Jani boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.

O‘zbekiston — Italiya strategik sherikligini, eng avvalo, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy hamda madaniy-gumanitar sohalarida yanada rivojlantirish masalalari ko‘rib chiqildi. Hududlararo hamkorlikni kengaytirishga alohida e’tibor qaratildi.

Barcha darajalarda ikki tomonlama muloqotlar faollashgani va hamkorlikning asosiy ko‘rsatkichlari izchil o‘sib borayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Joriy yil boshidan buyon o‘zaro savdo hajmi 25 foizga oshdi. O‘zbekistonda metallurgiya, energetika, qishloq xo‘jaligi, kimyo sanoati hamda iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida Italiyaning yetakchi kompaniyalari

ishtirokidagi loyihalar muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston va Toskanani ko‘p asrlik tarixiy hamda madaniy aloqalar bog‘lab turishi ta’kidlandi. Buyuk ipak yo‘li davrida Florensiya bilan O‘zbekistonning qadimiy shaharlari o‘rtasida faol savdo-sotiq amalga oshirilgan, florensiyalik savdogar va diplomatlar esa Amir Temur saroyida qabul qilingan.

Bugungi kunda Toshkent shahrida Piza universitetining filiali muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda. Joriy yilda mazkur filial mehnat bozoriga ilk bitiruvchilarni chiqaradi. Prato shahrida mamlakatimizning to‘qimachilik mahsulotlari savdo uyi

ishlamoqda. 2024-yilda Florensiyadagi Uffitsi galereyasida yurtimizning avangard san’ati asarlari ko‘rgazmasi tashkil etildi.

Toskana viloyati bilan to‘qimachilik, charm-poyabzal, oziq-ovqat va zargarlik sanoati, qurilish hamda ta’lim, madaniyat va turizm sohalarida hamkorlikni rivojlantirish katta salohiyatga ega ekanligi ta’kidlandi.

Toskana va Buxoro viloyati o‘rtasida sheriklik aloqalarining rivojlanayotgani hamda hamkorlik to‘g‘risida bitim imzolangani yuksak baholandi.

Uchrashuv yakunida Toskana bilan mamlakatimiz hududlari o‘rtasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirishga

qaratilgan yangi loyiha va tashabbuslarni amalga oshirishni nazarda tutuvchi qo‘shma “yo‘l xaritasi”ni tayyorlash va qabul qilish to‘g‘risida kelishuvga erishildi.

Toskana Italiyaning eng iqtisodiy rivojlangan hududlari qatoriga kiradi va kuchli sanoat salohiyati, yuqori texnologiyali ishlab chiqarish, zamonaviy qishloq xo‘jaligi, jahonga mashhur vinochilik hamda turizm tarmog‘iga ega.

Viloyatning ma’muriy markazi — Florensiya esa jahon madaniyati, ilm-fani va san’ati taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan Uyg‘onish davrining umume’tirof etilgan “beshigi” hisoblanadi.

O‘ZA

PENSIYA TIZIMIDA YANGI MEXANIZMLAR JORIY ETILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev pensiya tizimini isloh qilish bo‘yicha takliflar taqdimoti bilan tanishdi.

O‘n yilda mamlakatimizda pensiya miqdori 3,3 barobar oshirildi, uning eng kam miqdori minimal iste’mol xarajatlari darajasidan yuqori belgilandi. 2021-yilgacha 1,1 million nafar fuqaroning pensiyasi 400 ming so‘mdan kam bo‘lgan. Bugungi kunda eng kam pensiya miqdori 878 ming so‘mni,

minimal iste’mol xarajatlari esa 715 ming so‘mni tashkil etmoqda.

Taqdimotda jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi rivojlangan mamlakatlarda pensiya mablag‘lari iqtisodiyot uchun uzoq muddatli resurs vazifasini o‘tayotgani qayd etildi.

Hisob-kitoblarga ko‘ra, mamlakatimizda pensiya tizimi to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilsa, iqtisodiyotga uzoq muddatli mablag‘larni jalb qilish mumkin. Buni Xalqaro valyuta jamg‘armasi, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki va Xalqaro mehnat tashkiloti ekspertlari ham tasdiqlamoqda.

Shu bois, pensiya tizimini ilg‘or xorijiy tajriba asosida isloh qilish, jamg‘arib boriladigan, xususiy va korporativ pensiya tizimlarini rivojlantirish zarurligi ta’kidlandi.

Davomi 2-beta



Munosabat

Geosiyosiy ziddiyatlar va jahon iqtisodiyotidagi keskin o‘zgarishlar sharoitida investorlar, avvalo, qonun ustuvorligi ta’minlangan, iqtisodiy barqarorlik va aniq qoidalar mavjud bo‘lgan bozorlarni tanlamoqda. Shu ma’noda, zamonaviy dunyoda sarmoya uchun raqobat oddiy kapital jalb qilish kurashi emas, balki ishonchli muhit va samarali institutlar yaratish raqobatiga aylandi. O‘zbekiston ham aynan shu tamoyildan kelib chiqib, investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish, xorijiy sarmoya uchun qulay va ishonchli muhit shakllantirish yo‘lidan bormoqda.

TOSHKENT XALQARO MOLIYA MARKAZI: mamlakatimizning jahon sarmoya tizimiga integratsiyalashuvi yo‘lidagi strategik bosqich



So‘nggi besh yilda yurtimiz iqtisodiyotiga 123 milliard dollar investitsiya jalb etilgani amalga oshirilayotgan islohotlarga xalqaro ishonch ortib borayotganini ko‘rsatadi.

Endi ushbu ishonchni yanada mustahkamlaydigan yangi huquqiy va institutsional mexanizmlarni hayotga tatbiq etish muhim bo‘lib bormoqda. “Toshkent xalqaro moliya markazi to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy qonun ana shu yo‘ldagi muhim strategik qadamlardan biri bo‘ldi.

Davomi 4-beta

Prezident Ilhom ALIYEV: “QORABOG‘NI TIKLASHDA BIRINCHI YORDAM O‘ZBEKISTONDAN KELDI”

13-iyul kuni Ozarbayjon Prezidenti Ilhom Aliyev IV Shusha Global media forumining ochilish marosimida so‘zlagan nutqida O‘zbekiston bilan munosabatlarni rivojlantirish Ozarbayjon uchun ustuvor yo‘nalishlardan biri ekanini ta’kidladi.

“Muhtaram Prezident Shavkat Miromonovich bilan shaxsiy do‘stligimiz bu munosabatlarni yanada yuqori bosqichga olib chiqdi. Qorabog‘ni tiklashda bizga birinchi bo‘lib O‘zbekiston Prezidenti yordam berganini alohida ta’kidlayman. Fuzuliy shahrida Mirzo Ulug‘bek nomidagi ko‘rkam va katta maktab qurildi hamda biz Shavkat Miromonovich bilan birgalikda ushbu maktabni ochdik. Shundan so‘ng bizga boshqa qardosh davlatlar — Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkmaniston ham sovg‘alar taqdim etdi. Lekin birinchi yordam aynan O‘zbekistondan keldi”, — dedi Ozarbayjon yetakchisi.

Prezident Ilhom Aliyev ikki mamlakatni juda chuqur tarixiy rishtalar bog‘lab turishi hamda O‘zbekiston bilan munosabatlarni rivojlantirish ustuvor yo‘nalishlardan biri ekanini qayd etdi. Ozarbayjon rahbari O‘zbekistonning birodarlik missiyasi faqat maktab bilan cheklanib qolmaganiga e’tibor qaratdi. Xonkendi shahridagi birinchi yirik sanoat korxonasi — tikuvchilik fabrikasi ham aynan O‘zbekiston sarmoyasi hisobidan ochildi.

“Ko‘plab iqtisodiy va sanoat loyihalari amalga oshirilmqda. Ularga ham Ozarbayjon, ham O‘zbekiston sarmoyalari kiritilmoqda. Biz ustav kapitali 500 million dollar bo‘lgan qo‘shma investitsiya fondini tuzdik. Mazkur investitsiya fondi O‘zbekiston va Ozarbayjonda turli loyihalarni amalga oshirish bilan shug‘ullanmoqda. Bugun Ozarbayjonning SOCAR neft kompaniyasi O‘zbekistondagi muhim konni qidirishga sarmoya kiritmoqda va yaqin kelajakda yaxshi xabarlar eshitishga ishonamiz. Chunki bugungi kunda energetika xavfsizligi, ayniqsa, gaz ta’minoti masalalari ko‘plab mamlakatlar uchun muhim ahamiyatga ega

va “Ustyurt” konidagi qidiruv ishlari yaxshi natijalar berishiga ishonaman”, — dedi Ozarbayjon Prezidenti.

Ozarbayjon rahbari “Ozarbayjon — Markaziy Osiyo” formati tashkil etilganiga alohida to‘xtalib, bunda ham Prezident Shavkat Mirziyoyevning yuksak xizmatlari va o‘ziga xos o‘rni borligini ta’kidladi. “Ozarbayjon allaqachon ushbu Maslahat kengashiga to‘laqonli a‘zo sifatida qo‘shildi. Meni ikki marta sammitlarga faxriy mehmon sifatida taklif qilishdi. Oxirgi marta tashkil etilgan uchrashuvda “Ozarbayjon — Markaziy Osiyo” Maslahat kengashi tuzildi. Bu bizda katta g‘urur va quvonch uyg‘otadi. Aytishim mumkinki, bu noyob hodisa, chunki geografik jihatdan biz Janubiy Kavkazda joylashganmiz. Biroq madaniy, tarixiy va etnik aloqalar shunchalik mustahkam, siyosiy munosabatlar esa shu qadar ko‘p qirraliki, Markaziy Osiyodagi do‘st mamlakatlar bizni qabul qilishga qaror qildi”, — dedi Ilhom Aliyev.

Ozarbayjon davlat rahbarining fikricha, bunday munosabatlardagi bugungi kunda geosiyosiy va geoiqtisodiy munosabatlarga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Chunki shu tariqa Markaziy Osiyo bilan Ozarbayjon yagona iqtisodiy va siyosiy makonda birlashadi.

Ta’kidlanganidek, “Prezident Shavkat Mirziyoyevning uzoqni ko‘ra bilishi va strategik qararlari bu borada juda muhim ahamiyat kasb etdi”.

“Qardosh o‘zbek xalqi va davlati Prezident Shavkat Mirziyoyev yetakchiligidagi muvaffaqiyatli tarzda va ishonch bilan olg‘a borayotgani e’tirofga loyiq”, — deya so‘zini yakunladi Ozarbayjon Prezidenti.

“Dunyo” AA
Boku shahri

METALLURG SINGLIM Dilnozaga

Sening guldek nozik, nafis qo‘llaring
Jilo bermoqdadir og‘ir metalga.
Shundan yuzing yorug‘, ochiq yo‘llaring,
Hayot bermoqdasan har bir detalga.
Yuragi begardim, toza ruh singlim,
Dilnoza, o‘zinning metallurg singlim.

To‘marismonandim, Barchinsifatim,
Temirni eritar qalbingning qo‘ri.
Jasorating qadim, mardliging qadim,
Sening tenging faqat mardlarning zo‘ri.
Erta-kech olovdan yuzi surx, singlim,
Dilnoza, o‘zinning metallurg singlim.

Mislsiz issiqda toblangan dasting
Qalam tutganidan faxrlandim men.
Sakkiz misra she‘ring — mo‘tabar qasding,
Otash so‘zlaringdan sehlrandim men.
Otash va so‘z bilan tuzgan sulh singlim,
Dilnoza, o‘zinning metallurg singlim.

Orzularing sendan ketmadi ayri,
Ajddollarga xos, mos iz bo‘lding bugun.
Haq hukmi — Yurtboshim mehri tufayli,
Sen Zulfiyaxonimga qiz bo‘lding bugun.
Tegmasin yomon ko‘z, yomon suq, singlim,
Dilnoza, o‘zinning metallurg singlim.

Botir ERGASHEV

ILM KARVONING YOSH PESHQADAMLARI



Xushxabar

Joriy yilning 4-12-iyul kunlari Kolumbiyada nufuzli 56-Xalqaro fizika olimpiadasi bo‘lib o‘tdi. Mamlakatimiz terma jamoasi nufuzli musobaqada

ilk bor 2 ta kumush va 2 ta bronza medalni qo‘lga kiritib, o‘z ishtiroki tarixidagi eng yuqori natijani qayd etdi. Yurtimiz sharafini himoya qilgan besh nafar o‘quvchidan to‘rt nafari medal bilan qaytdi, yana bir ishtirokchi esa Honorable Mention — faxriy e’tirof bilan taqdirlandi.

Davomi 5-beta

2026-yil 15-iyul, 142-son

PENSIYA TIZIMIDA YANGI MEXANIZMLAR JORIY ETILADI

Boshlanishi 1-betda

Hozirda fuqarolar ish haqining 0,1 foizi jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘iga o‘tkaziladi. Ushbu mablag‘larga hisoblanadigan yillik 10 foizlik daromad bank omonatlaridan qariyb ikki barobar kam.

Shu munosabat bilan mazkur tizimning jozibadorligini oshirish va aholini unda faol ishtirok etishga rag‘batlantirish bo‘yicha yangi mexanizmlar taklif qilindi.

Xususan, oylik ish haqi 7,6 million so‘mgacha (pensiya hisoblash bazaviy miqdorining 15 baravari) bo‘lgan fuqaro jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘iga ish haqining 5 foizini o‘tkazsa, davlat tomonidan qo‘shimcha yana 2,5 foiz miqdorida mablag‘ ajratish ko‘zda tutilmoqda.

Oylik ish haqi 7,6 million so‘mdan yuqori bo‘lgan fuqarolar uchun esa to‘langan ijtimoiy soliqning shu miqdordan oshgan qismining 1 foizini ularning jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘iga o‘tkazish taklif etildi.

Pensiya miqdorini hisoblash tartibini takomillashtirish masalalariga ham alohida e‘tibor qaratildi.

Amalda pensiya oxirgi o‘n yillik mehnat faoliyatidagi besh yillik ish haqidan hisoblanadi. Shuningdek, ish haqining 6 million so‘mdan yuqori qismi

hisobga olinmaydi. Bu ayrim hollarda fuqarolar pensiyasining o‘rtacha miqdori pasayishiga olib kelmoqda.

Shu bois, pensiya hisoblanadigan ish haqi davrini 5 yildan 20 yilgacha uzaytirish hamda past daromad olingan ayrim davrlarni hisobdan chiqarish taklif qilindi.

Shuningdek, 2027-yildan boshlab pensiya hisoblashda inobatga olinadigan ish haqining yuqori chegarasini hozirgi 6 million so‘mdan 6,6 million so‘mga oshirish ko‘zda tutilmoqda.

Hisob-kitoblarga ko‘ra, yangi tartib asosida pensiyaga chiqadigan fuqarolarning pensiya miqdori hozirgiga nisbatan 8 foizga oshishi mumkin.

Davlatimiz rahbari pensiya tizimidagi o‘zgarishlar millionlab fuqarolarning hayoti va kelajagiga daxldor ekanini ta’kidlab, har bir taklifning ijtimoiy va iqtisodiy ta’sirini puxta hisob-kitob qilish zarurligini ko‘rsatib o‘tdi.

Bunday masalalarni aholi, keng jamoatchilik, ommaviy axborot vositalari va blogerlarni jalb qilgan holda ochiq muhokama qilish, islohotlarning maqsadi va kutilayotgan natijalarini fuqarolarga aniq tushuntirish vazifasi qo‘yildi.

Mutasaddilarga xorijiy tajribani har tomonlama puxta o‘rganib, xususiy va korporativ pensiya tizimlarini yaratish bo‘yicha qonun loyihasini kiritish vazifasi qo‘yildi.

O‘ZA

MEHNAT QILGANNING QADRI HAMISHA BALAND

Umrinning katta qismi Bekobod metallurgiya kombinati bilan bog‘liq. Yoshligim ham, kuch-quvvatim ham, mehnatim ham shu yerda o‘tdi. Hayotda qiyinchilikni ham ko‘rdim, quvonchni ham.

Prezidentimizning Bekobodga tashrifi umrimning eng esda qolarli kunlaridan biri bo‘ldi. Elektromobil kalitini qo‘limga tutqazganida beixtiyor hayajonlandim. Shu yoshga kirib, bunday kunni ko‘raman deb o‘ylamagan edim. O‘sha lahzada xayolimdan bitta gap o‘tdi: demak, yillar davomida qilgan mehnatimiz izsiz ketmagan.

1955-yilda harbiy xizmatdan qaytib, kombinatga ishga kirganman. O‘shanda yosh yigit edim. Kasbni ham, hayotni ham shu yerda o‘rgandim. Issiq sexlarda ishladik, tungi smenalarda qoldik. Qishning sovg‘i ham, yozning jaziramas ham bizni ishdan bezdirmagan. Chunki biz uchun ish elga kerakli bo‘lish degani edi.

Temir bilan ishlagan odam sabrni o‘rganadi. Po‘lat birdaniga toblanmaganidek, inson ham

mehnat bilan pishadi. Shuning uchun yoshlarga qarab doim bitta gapni aytaman: hayotda oson yo‘l qidirmanglar. Insonni mehnat tarbiyalaydi, mehnat odamni odam qiladi.

Kombinatda qariyb ellik yil ishladim. Birga ishlagan qancha safdoshlarim bugun oramizda yo‘q. Ular bilan birga o‘tgan kunlarni eslasam, ko‘nglim to‘lib ketadi. Biz bir oiladek edik. Bir-birimizga suyanardik, og‘irini yengil qildardik. Shu bois, o‘sha yillar men uchun qadrlidi.

Odami qariganda boylikni emas, ortidan qolgan yaxshi nomini o‘ylaydi. Mening ham boyligim — farzandlarim, nabiralarim va bir umr ishlagan jamoamning hurmati. Bundan ortiq davlat bo‘lmaydi.

ORZULARIMGA YANA BIR QADAM YAQINLASHGAN KUN

Inson hayotida shunday lahzalar bo‘ladiki, u kunlarni yillar o‘tsa ham unutmaydi. Men uchun Prezidentimiz bilan Bekobodda bo‘lib o‘tgan uchrashuv ana shunday esda qolarli voqea bo‘ldi.

Davlatimiz rahbari bilan muloqot qilish, fikrlarimni bildirish va bunday yuksak e‘tiborga sazovor bo‘lishni xayolimga ham keltirmagan edim. Uchrashuv davomida kombinatda yoshlarga yaratilayotgan imkoniyatlar, kasbim va mehnat faoliyatim haqida so‘zladim.

Shu bilan birga, bir orzum haqida gapirdim. Bolaligimdan she‘riyatga mehr qo‘yganman. Zulfiyaxonim ijodi, uning vatanga muhabbati, hayotga qarashi menga hamisha ilhom berib kelgan. U kabi el-yurga sadoqatli, ijodkor va fidoyi inson bo‘lishni orzu qilganman.

Prezidentimiz tomonidan ko‘rsatilgan e‘tiborni shu hurmatning davomi deb bildim. Bu faqat menga berilgan sovg‘a emas. Bu zavodlarda, fabrikalarda, dalalarda, umrini mehnat bilan o‘tkazgan minglab insonlarga bildirilgan ehtirom deb qabul qildim.

Biz, katta avlod tinchlikning qadriini yaxshi bilamiz. Tinchlik bo‘lsa, zavod ham ishlaydi, dehqon ham yerga unug‘ qadaydi, bola ham bemalol o‘qiyladi. Tinchlik bor joyda rizq ham, baraka ham bo‘ladi. Shuning uchun bugungi osoyishta kunlarimizning qadriga yetishimiz kerak.

Bugun Bekobod ham, butun yurtimiz ham o‘zgaryapti. Yangi binolar qurilyapti, korxonalar yangilanyapti. Bulaming barchasini ko‘rib, qarigan chog‘imda quvonaman. Chunki biz orzu qilgan kunlarni farzandlarimiz ko‘rayotganini his qilaman.

Yoshlarga bitta tilak aytaman: kasbingizni seving. Mehnatdan qochmang. Hayotda insondan mol-dunyoy qolmasligi mumkin, lekin yaxshi nomi



Hamid ANDAYEV, mehnat faxriysi

qoladi. Ana shu yaxshi nomni halol mehnat bilan o‘rttirish kerak.

Yaratganga shukr, bugun shu kunlarga yetib keldik. Tilagim bitta: yurtimiz tinch bo‘lsin, xalqimiz omon bo‘lsin. Chunki bugungi tinchligimiz etangi farovon hayotimizning eng katta kafolatiidir.

Nuqtayi nazar

Insoniyat tarixini ba‘zan birgina material tarixi deb ham atashadi. Avval tosh, keyin bronza, so‘ng temir sivilizatsiya taraqqiyotiga asos bo‘lgan. Har bir davrda qaysi xalq metalni yaxshiroq o‘zlashtirgan bo‘lsa, o‘sha xalq iqtisodiyotida ham, harbiy qudratda ham, ilm-fanda ham ustunlikka erishgan. Bugun esa insoniyat raqamli texnologiyalar, sun‘iy intellekt va “yashil” energetika davriga qadam qo‘ygan bo‘lsa-da, taraqqiyotning tayanchi o‘zgargani yo‘q. Faqat endi oddiy temir emas, balki yuqori texnologiyalar asosida ishlab chiqarilgan sifati po‘lat iqtisodiyotning haqiqiy qudratini belgilamoqda.



Sunnatilla G‘OYIBNAZAROV, texnika fanlari doktori

Bugun dunyoda qaysi mamlakat avtomobil ishlab chiqarsa, samolyot yasasa, yuqori tezlikdagi temir yo‘llar qursa, yoki atom energetikasini rivojlantirsa, u, avvalo, zamonaviy metallurgiyaga tayanadi. Chunki metallurgiya bir tarmoq emas, balki barcha sanoat tarmoqlarini bog‘lab turuvchi asosiy halqadir. Shuning uchun iqtisodchilar metallurgiyani iqtisodiyot yuragi, muhandislar esa barcha texnologiyalar asosi deb atashadi.

Mamlakatimizda sanoatni chuqur modernizatsiyalash, mahalliy xomashyoni yuqori qo‘shilgan qiymatga ega mahsulotga aylantirish va iqtisodiyotning texnologik asoslarini mustahkamlash davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. Mazkur jarayonning eng yorqin namunasi sifatida O‘zbekiston metallurgiya kombinatida yangi quyish va prokat majmuasi ishga tushirilganini ko‘rsatish mumkin. Bir qarashda bu navbatdagi sanoat obyektiining faoliyat boshlashiga o‘xshaydi. Aslida, mazkur majmua mamlakat iqtisodiyotining kelgusi o‘n yillik rivojlanish strategiyasi bilan bevosita bog‘liq. Chunki bu yerda ilk bor yurtimizda sanoatning ko‘plab tarmoqlari uchun zarur issiq prokatlangan po‘lat list ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilmogda. Bu esa nafaqat import o‘rnini bosish, balki mashinasozlik, avtomobilsozlik, elektrotexnika,



metall varag‘i bo‘lib tuyulishi mumkin. Ammo muhandis uchun u yangi avtomobil, yangi poyezd, yangi sanoat uskunasi yoki yangi elektr stansiyasining boshlang‘ich nuqtasidir. Iqtisodchi uchun esa u mamlakatning qo‘shilgan qiymat yaratish qobiliyatini belgilovchi muhim omil. Metallurgiyada “yassi prokat” deb ataladigan bu mahsulot minglab turdagi sanoat mahsulotlari asosini tashkil etadi. Avtomobil kuzovi, lokomotiv va vagonlar, neft-gaz sanoatida bosim ostida ishlaydigan quрилmalar, elektr transformatorlari, maishiy texnika korpuslari, sanoat robotlari, qishloq xo‘jaligi mashinalari, konteynerlar, kemalar, metall ko‘priklar va hatto qayta tiklanuvchi energiya obyektlarining katta qismi aynan listli po‘lat asosida tayyorlanadi. Bu yerda bir muhim ilmiy jihatga e‘tibor qaratish lozim. Metalning sifati faqat uning kimyoviy tarkibi bilan belgilanmaydi. Materialshunoslik fanining asosiy qonuniyatlaridan biri shundan iboratiki,

“Bekobodda yoqilgan yangi pechlarda eritilayotgani faqat metall emas. U yerda yangi O‘zbekistonning industrial kelajagi toblanmoqda. Uskunalardan chiqayotgan har bir po‘lat list yurtimizning texnologik mustaqilligi, milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligi va muhandislik salohiyatiga qo‘shilayotgan mustahkam hissidir.

metalning mikrotuzilishi uning ekspluatatsion xususiyatlarini belgilaydi. Issiq prokatlash jarayonida po‘lat yuqori haroratda maxsus valiklar orasidan o‘tkaziladi. Bu jarayon natijasida uning ichki kristall tuzilishi qayta shakllanadi, donalar maydalashadi, ichki kuchlanishlar bartaraf etiladi va metallning mexanik xossalari barqarorlashadi. Natijada mustahkam, bir xil sifatga ega va keyingi texnologik jarayonlar uchun tayyor, yarimatayyor mahsulot hosil bo‘ladi. Bu jarayonning ahamiyatini



zanjirning faqat birinchi bo‘g‘inida ishtirok etsa, asosiy iqtisodiy foydani boshqalar ko‘radi. Zanjirning barcha bosqichlari mamlakat ichida shakllansa, ish o‘rinlari ham, texnologiya ham, eksport daromadlari ham shu yerda qoladi. Shu nuqtayi nazardan, Bekobodda issiq prokatlangan po‘lat list ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilishi iqtisodiy mustaqillikni mustahkamlashga qaratilgan strategik qaror sifatida baholalanishi mumkin. Bu qaror orqali O‘zbekiston faqat metall ishlab chiqaruvchi mamlakat emas, balki metall asosida yuqori texnologiyali mahsulotlari yaratadigan industrial davlat sifatida yangi bosqichga ko‘tarilish uchun mustahkam zamin yaratmoqda. Aslida, mamlakatlar taraqqiyotini belgilaydigan asosiy masala qancha temir rudasiga egalik emas. Asosiy masala ushbu rudani qanday texnologiya bilan qanday mahsulotga aylantira olishda. Ayni yo‘nalishda munosib yechim topa olgan davlatlar sanoatda yetakchiga aylangan. Bugun O‘zbekiston ham aynan shu yo‘lni tanlamogda.

Dunyoy iqtisodiyoti tarixiga nazar tashlasak, bir qonuniyat yaqqol namoyon bo‘ladi: iqtisodiy taraqqiyotning barqaror poydevori, avvalo, rivojlangan sanoatga, sanoat esa mustahkam metallurgiya bazasiga tayanadi. Bugun dunyo iqtisodiyotida yetakchi o‘rinlarni egallab turgan davlatlarning deyarli barchasi o‘z industrial taraqqiyotini aynan metallurgiyani rivojlantirishdan boshlagan. Masalan, tabiiy temir rudasi zaxiralari cheklangan bo‘lishiga qaramay, XX asrning ikkinchi yarmida Yaponiya metallurgiyaga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali avtomobilsozlik va mashinasozlik bo‘yicha jahon yetakchisiga aylandi. Janubiy Koreya ham xuddi shunday yo‘lni bosib o‘tdi. Bugun bu mamlakatlarda ishlab chiqarilayotgan avtomobillar, kemalar va sanoat uskunalari yuqori sifatlilik mahalliy yoki chuqur qayta ishlangan po‘lat mahsulotlariga tayanadi. Xitoy tajribasi esa bu qonuniyatning yanada yorqin namunasiidir.

So‘nggi yigirma yil davomida mamlakat metallurgiya quvvatlarini izchil kengaytirdi, zamonaviy quyish va prokat majmualarini barpo etdi, raqamli boshqaruv tizimlarini joriy qildi. Natijada bugun jahonda ishlab chiqarilayotgan po‘latning yarmidan ortig‘i Xitoy hissasiga to‘g‘ri keladi. Bu esa unga faqat metall eksport qilish imkonini emas, balki avtomobil, temir yo‘l texnikasi, elektr jihozlari, kemasozlik va yuqori texnologiyali mahsulotlar bozorida kuchli raqobat ustunligini ta‘minladi. Hindiston ham bugun xuddi shu strategiyani amalga oshirmogda. Mamlakat temir rudasini chuqur qayta ishlash, yuqori qo‘shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish va ichki sanoat kooperatsiyasini kengaytirish orqali iqtisodiy o‘shining yangi manbalarini shakllantirmogda. Bu misollar bir haqiqatni ko‘rsatadi: XXI asrda davlatlar o‘rtasidagi raqobat endi kim ko‘proq ruda qazib olganida emas, balki kim uni tezroq, samaraliroq va yuqori texnologiyali mahsulotga aylantira olganida namoyon bo‘lmoqda. Shu bois, zamonaviy metallurgiya faqat og‘ir sanoat tarmog‘i emas, balki innovatsiyalar, raqamli texnologiyalar, materialshunoslik va muhandislik bilimlarini birlashtiruvchi yuqori intellektual sohaga aylandi.

Prezidentimiz belgilab bergan ustuvor vazifalarning mohiyati shundaki, mamlakatimiz tabiiy boyliklarni shunchaki qazib oladigan emas, balki ularni ilm-fan, muhandislik tafakkuri va zamonaviy texnologiyalar asosida chuqur qayta ishlay, yuqori qo‘shilgan qiymatga ega mahsulotlar yaratadigan davlatga aylanishi lozim. Bu esa iqtisodiy o‘shining sifat jihatidan yangi bosqichini anglatadi. Temir rudasi tabiat ne‘mati bo‘lishi mumkin, ammo uni raqobatbardosh mahsulotga aylantirish inson aqli, ilm-fan va muhandislik mahorati samarasidir. Shu ma‘noda, metallurgiya zavodlarida faqat po‘lat emas, mamlakatning kelajak iqtisodiyoti ham shakllanadi.

Bekobodda yoqilgan yangi pechlarda eritilayotgani faqat metall emas. U yerda yangi O‘zbekistonning industrial kelajagi toblanmoqda. Uskunalardan chiqayotgan har bir po‘lat list yurtimizning texnologik mustaqilligi, milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligi va muhandislik salohiyatiga qo‘shilayotgan mustahkam hissidir. Ehtimol, bir necha yildan keyin bugun ishlab chiqarilayotgan ana shu po‘lat listlardan yig‘ilgan poyezdlar yurtimiz temir yo‘llarida harakatlanar, ulardan tayyorlangan elektr jihozlari yangi sanoat korxonalarini quvvat bilan ta‘minlar, qishloq xo‘jaligi texnikasi dalalarda mehnat qilar, eksportbop mahsulotlar esa “Made in Uzbekistan” tamg‘asi bilan jahon bozorlariga chiqar. Ana shunda Bekobodda boshlangan bugungi o‘zgarishlarning haqiqiy tarixi va qadri yanada yaqqol namoyon bo‘ladi. Chunki kelajak tasodifan barpo etilmaydi. U ilm bilan, muhandislik bilan, mehnat bilan va eng avvalo, po‘latdek mustahkam iroda bilan quriladi.

Vazirlar Mahkamasining “Surxondaryo viloyatida issiqxona xo‘jaliklarini yanada rivojlantirish bo‘yicha navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq, Toshkent shahri va Toshkent viloyatida joylashgan, atrof-muhit va insonlar sog‘lig‘iga salbiy ta‘sir ko‘rsatayotgan issiqxona xo‘jaliklari Surxondaryo viloyatida tashkil etiladigan erkin iqtisodiy zonaga ko‘chiriladi. Bunga talay sabablar bor, albatta.

Resursdan – natijaga



SURXONDARYOGA KO‘CHIRILADIGAN

ISSIQXONALARGA

QANDAY IMTIYOZLAR BERILADI?

Dunyo iqlimi o‘zgarib borayotgani yangilik emas. Jazirama kunlar ortib, yog‘ingarchilik kamayib ketgani ham bor gap. Qurg‘oqchil maydonlar kengayib, bir paytlar ko‘kalamzor yerlar ham suvsizlikdan cho‘lga aylana boshladi. Ayni paytda ozuq-ovqat xavfsizligi, suv tanqisligi, ekologiya masalasi o‘zaro chambarchas bog‘lanib ketgan.

Ozuq-ovqat xavfsizligini hal etishda aynan issiqxonalar o‘ziga xos o‘ringa ega. Biroq suv va yer resurslarini ishlatish issiqxonalardan foydalanishda ham qator talablarni keltirib chiqarayotir. Xususan, shaharlashuv (urbanizatsiya) jarayonida issiqxonalarning qulay va xavfsiz manzillarga joylashtirish ham muhim. Shu sabab ham yirik shaharlar va ular atrofidagi ishlab chiqarish hamda mahsulot tayyorlash korxonalarini boshqa maqbul joylarga ko‘chirish masalasi bejiz ko‘tarilmagan.

Zarurat va jarayon

Keyingi bir necha yilda poytaxt ob-havosining keskin buzilayotgani keng jamoatchilikning haqli e‘tirozlariga sabab bo‘layotgan edi. Xususan, 2024-yili Toshkent atrofida “yashil” halqa o‘rniga amalda ko‘mirda ishlaydigan va havoni ifloslantiradigan issiqxonalardan iborat “kulrang” halqa shakllangani haqida xabar berilgan. O‘shanda issiqxonalarning 60 foizi ko‘mir yoqib, istilishi ma‘lum qilingan. Mas‘ul tashkilotlar poytaxt va uning atrofidagi issiqxonalar xaritasini ham e‘lon qilgan. Yirik aholi yashash manzillarida toza, muassifo muhit yaratish maqsadida issiqxonalarini hududlarga ko‘chirish tashabbusi ilgari surildi.

Endi Toshkent shahri hamda Toshkent viloyatining Yuqori Chirchiq, Qibray, Yangiyo‘l, Zangiota va Toshkent tumanlarida atmosfera havosi sifatini yaxshilash maqsadida 2026-yil 1-iyundan boshlab ko‘mir, mazut va atmosfera zararli yoqilg‘ilardan foydalanishni nazarda tutuvchi yangi issiqxona xo‘jaliklarini tashkil etish va davlat ro‘yxatidan o‘tkazishga ruxsat berish to‘xtatildi. 2026-yil 1-avgustdan boshlab esa mavjud issiqxonalar faoliyatining iqtisodiy samaradorligini qayta ko‘rib chiqish va ularni shaharsozlik hamda ekologik talablarga moslashtirish maqsadida qator cheklor va oshirilgan tariflar joriy etiladi. Issiqxonalariga tabiiy gaz yetkazib berish to‘liq to‘xtatildi va mavjud shartnomalar bekor qilindi.

Issiqxonalar tomonidan iste‘mol qilinadigan suv resurslari uchun to‘lovlar (soliq stavkasi) sanoat korxonalari uchun belgilangan eng yuqori tariflarning 5 baravari miqdorida hisoblanadi.

2026-yil 1-avgustdan boshlab esa issiqxonalarda yoqilg‘i sifatida ko‘mir, shinalar, bitum, mazut, plyonka, sintetik karton, rezina, jun tolasi hamda shunga o‘xshash komponentlardan

iborat materiallarni yoqish natijasida atrof tabiiy muhitni ifloslantirgani va chiqindilar joylashtirgani uchun kompensatsiya to‘lovlari yigirma baravariga oshirilgan holda qo‘llanadi.

Mazkur loyiha doirasida muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini zamonaviy talablar asosida yangilash va kengaytirishga ham alohida e‘tibor qaratilmoqda. Jumladan, elektr energiyasi, tabiiy gaz, ichimlik va texnik suv ta‘minoti, avtomobil yo‘llari hamda raqamli aloqa tarmoqlari bosqichma-bosqich takomillashtiriladi. Xususan, yangi elektr uzatish tarmoqlarining tortilishi va zamonaviy transformator punktlarining o‘rnatilishi ishlab chiqarish quvvatlarini uzluksiz ishlatish, zamonaviy issiqxona majmualari va sanoat obyektlari uchun to‘liq quvvatda faoliyat yuritish imkoniyatini beradi. Natijada tadbirkorlar uchun ishonchli energetik muhit shakllanadi, yangi loyihalarni joylashtirishda qulaylik ortadi va umumiy investitsiyaviy jozibadorlik sezilarli darajada oshadi.

— Sherobod tumanida “Surxon-Agro” iqtisodiy zonasini buniyod etish jarayoni boshlab yuborildi. Bu yerda elektr energiyasi bilan ta‘minlash guruhlari ishlayapti. Maqsadimiz — tadbirkorlar uchun poytaxt va Toshkent viloyatidagidan kam bo‘lmagan shart-sharoit yaratish, — deydi “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ Surxondaryo filiali direktori Ma‘rufjon Shamsiddinov.

Keyingi yillarda viloyatning iqtisodiy salohiyatini yanada yuksaltirish, eksportpor mahsulotlar hajmini ko‘paytirish hamda agrosanoat tarmog‘ini yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan yirik loyihalar amalga oshirilayapti. Bu borada Prezidentimizning 2026-yil 25-martdagi “Aholini kuz-qish mavsumlarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan barqaror ta‘minlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori muhim dasturlamal vazifasini o‘tamog‘da.

Mazkur hujjatga muvofiq, Sherobod tumanida “Surxon-Agro” erkin iqtisodiy zonasini tashkil etilib, bu yerdagi kamida 940 gektar maydonda zamonaviy issiqxona majmualarini tashkil etish belgilangan. Bundan tashqari, amaliy hisob-kitoblar va istiqbolli rejalar asosida Qiziriq tumanidagi 220 gektar yer ham ushbu tashabbus doirasidagi loyihaga qo‘shiladi. Natijada “Surxon-Agro” erkin iqtisodiy zonasini jami 1160 gektarni qamrab oladi.

Toshkent shahri, Toshkent viloyatining Yuqori Chirchiq, Qibray, Yangiyo‘l, Zangiota va Toshkent tumanlari hududidan Surxondaryo viloyatiga ko‘chiriladigan issiqxona xo‘jaliklarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida vohadagi “Surxon-Agro” zonasi hududida faoliyatini davom ettirgan tadbirkorlik subyektlariga milliy va xorijiy valyutadagi kreditlarni qaytarish muddati 5-yilga, shundan imtiyozli davri 3-yilgacha uzaytiriladi.

“Surxon-Agro” zonasining faoliyat ko‘rsatish muddati keyinchalik uzaytirish imkoniyati bilan 30-yilni tashkil etadi. Uning ishtirokchilariga EIZ ishtirokchilari uchun belgilangan ayrim soliq, bojxona imtiyozlari va boshqa preferensiyalar tatbiq etiladi.



Mutaxassislarning aytishicha, mazkur loyiha oddiy agrar tashabbus emas, balki Surxondaryoning iqtisodiy qiyofasini tubdan o‘zgartirishga xizmat qiladigan strategik dastur. Zamonaviy energiya tejamlor issiqxonalarning barpo etilishi yil davomida yuqori hosil olish, eksport geografiasini kengaytirish va qo‘shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatini beradi. Eng muhimi, minglab yangi ish o‘rinlari ochilib, aholining doimiy bandligi oshadi va daromad manbalari kengayadi. Loyiha to‘liq amalga oshirilgandan so‘ng yillik 126,8 ming tonna mahsulot yetishtiriladi va 18 ming tonna mahsulotni qayta ishlash quvvati yaratiladi. Bu yerda 6300 ta doimiy va 8000 dan ortiq mavsumiy ish o‘rinlarini ochish ko‘zda tutilgan.

— Bugun Surxondaryo viloyatida zamonaviy issiqxonalar ko‘payib, energiya tejamlor texnologiyalar, tomchilatib sug‘orish tizimi va yuqori hosilli urug‘lardan samarali foydalanilmoqda. Bu esa kam yerda ham yuqori hosil olish imkonini berayapti, — deydi uzoq yillardan buyon shu yo‘nalishda xizmat qilayotgan O‘tkir Shaymanov. — Endi Sherobodda ish boshlayotgan yangi loyiha ortidan Surxon vohasining ildiz va qulay iqlim sharoiti

dehqonlar uchun yil davomida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish imkonini beradi. Kuz-qish mavsumida issiqxonalarda pomidor, bodring, qalampir, ko‘kat kabi eksportpor mahsulotlar ko‘p miqdorda yetishtiriladi. Sherobodga borib, ajratilgan maydonni ko‘zdan kechirdik. Serunum yer, suv muammosi yo‘q, logistika uchun ma‘qul lokatsiya.

Rag‘bat

Toshkent shahri, Toshkent viloyatining Yuqori Chirchiq, Qibray, Yangiyo‘l, Zangiota va Toshkent tumanlari hududidan Surxondaryo viloyatiga ko‘chiriladigan issiqxona xo‘jaliklarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida vohadagi “Surxon-Agro” zonasi hududida faoliyatini davom ettirgan tadbirkorlik subyektlariga milliy va xorijiy valyutadagi kreditlarni qaytarish muddati 5 yilga, shundan imtiyozli davri 3 yilgacha uzaytiriladi.

2028-yil 1-aprelgacha “Surxon-Agro” zonasi hududiga ko‘chadigan issiqxonalar uchun issiqxona konstruksiyasi va uskunalarini demontaj qilish, tashish va qayta o‘rnatish bilan bog‘liq xarajalar 1 sotix yer maydoni uchun bir martalik, biroq 500 ming so‘mgacha miqdorda Umummilliy ekologik

muammolarni bartaraf etish davlat maqsadli jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan qoplab beriladi. Issiqxona xo‘jaliklarini ko‘chirishdan bo‘shagan yer uchastkalarida hudud ixtisosligidan kelib chiqib, intensiv bog‘dorchilik, uzumchilik va ko‘chatchilik yo‘nalishlarida faoliyatini davom ettirish yoki “yashil bog‘lar”ni barpo etishga ruxsat beriladi.

Bu tadbirkorlar uchun yangi imkoniyatlar yaratishi barobarida viloyatlarning iqtisodiy salohiyati o‘shishiga ham sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi. — Qarorga muvofiq, tadbirkorlar uchun barcha sharoit yaratish ko‘zda tutilgan. Elektr energiyasi, suv, gaz, yo‘l infratuzilmasi shakllantirilmoqda. Tadbirkorlar kelib, holat, vaziyat bilan tanishib ishini boshlab yuboraypti. Chunki ular vaqtini besamar o‘tkazmaslik zarurligini yaxshi biladi, — deydi Surxondaryo viloyati qishloq xo‘jaligi boshqarmasi boshlig‘i Rahmatilla G‘afforov.

“Surxon-Agro” iqtisodiy zonasini bilan tanishuv

Vazirlar Mahkamasining tegishli qarori ijrosini ta‘minlash, tadbirkorlarga hududning investitsiyaviy va agrar salohiyatini yaqindan tanishtirish maqsadida Surxondaryo viloyatida tanishuv tadbirlari o‘tkazildi. Seminarlarda Qishloq xo‘jaligi vazirligi mas‘ullari, Toshkent viloyatidagi tuman hokimlari hamda o‘rinbosarlari, tadbirkorlar, fermerlar qatnashdi.

Surxondaryoda aholining tomorqadan umumli foydalanishini ta‘minlash maqsadida “Tomorqachilik maktabi” faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. Ushbu maktabda tajribali mutaxassislar yer egalari uchun urug‘ tanlash, ko‘chat parvarishi, mineral ozuqa berish, zararkunandalarga qarshi kurashish va mahsulotni bozorga chiqarish bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar o‘tab kelmog‘da.

Seminar ishtirokchilariga ushbu maskanda parvarish qilinaotgan ekinlarni yetishtirish texnologiyasi, agroteknika tadbirlar va hosildorlikni oshirish usullari haqida ham batafsil ma‘lumot berildi.

Sherobod tumanida barpo etilayotgan “Surxon-Agro” erkin iqtisodiy zonasida mehmonlarga issiqxona loyihalarini amalga oshirish uchun mavjud imkoniyatlar, muhandislik kommunikatsiyalari va investorlar uchun

yaratilgan qulay muhit haqida ham zarur ma‘lumotlar taqdim etildi.

Shu bilan birga, davlat tomonidan taqdim etilayotgan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari, jumladan, imtiyoz va preferensiyalar xususida ham atroficha so‘z yuritildi.

Prezidentimizning mazkur qarori bilan Surxondaryo viloyati Sherobod tumanida davlat muassasasi shaklida “Surxon-Agro” erkin iqtisodiy zonasini tashkil etiladi. Natijada tumanda kamida 940 gektar maydonda zamonaviy issiqxona majmualari joylashtiriladi. Energiya tejovchi va muqobil energiya manbalari asoslangan istish tizimlari ulushi kamida 50 foizga yetkaziladi, atmosfera havosiga zararli tashlamalar chiqaruvchi tadbirkorlik subyektlarining faoliyati bosqichma-bosqich qisqartiriladi.

“Surxon-Agro” zonasining faoliyat ko‘rsatish muddati keyinchalik uzaytirish imkoniyati bilan 30 yilni tashkil etadi. Uning ishtirokchilariga EIZ ishtirokchilari uchun belgilangan ayrim soliq, bojxona imtiyozlari va boshqa preferensiyalar tatbiq etiladi.

Erkin iqtisodiy zona doirasida zamonaviy logistika, qayta ishlash, saqlash va qadoqlash infratuzilmalarini shakllantirish rejalashtirilgan. Bu mahalliy mahsulotlarni tashqi bozorlarga tez va raqobatbardosh tarzda yetkazib berish imkoniyatini sezilarli darajada kengaytiradi. Hududning iqtisodiy taraqqiyoti va investitsiyaviy jozibadorligini oshirishga qaratilgan ushbu tashabbus bilan bir qatorda avtomobil yo‘llari infratuzilmasini yaxshilash, yangi yo‘llar barpo etish hamda mavjud yo‘llarni ta‘mirlash ishlari ham bajarilmoqda. Bu esa logistika jarayonini yengillashtirib, yuk tashish va mahsulot yetkazib berish samaradorligini oshiradi. Ushbu loyiha hududni zamonaviy infratuzilmaga ega, iqtisodiy faoliqli yuqori sanoat va agrar markazga aylantirishni kutilmoqda. Bugun viloyatda jami 7800 gektarga yaqin issiqxona mavjud bo‘lib, Sherobod tumanida Toshkent shahri va unga tutash hududlarda faoliyat yuritayotgan issiqxonalarini ko‘chirish uchun ajratilayotgan yana 940 gektar yer hisobiga voha issiqxonachilikda katta istiqbolli manzilga aylanadi.

Sarvar TO‘RAYEV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



Muzaffar odamlar

Mamlakatimiz tadbirkorlari haqiqiy ma‘noda yurtga madadkor bo‘lib bormoqda. Ishning ko‘zini biladigan, kichik imkoniyatdan tog‘dek sharoit yarab oladigan ishbilarmonlar ko‘pchilikka namuna. Negaki, islohotlar sabab taqdim etilayotgan imtiyoz va imkoniyatlar tadbirkorlar ishiga unum qo‘shmoqda. Ayni sabab bois, yil sayin tadbirkorlar safi kengayib, ishsizlik kamaymoqda, aholi turmush tarzi yaxshilanmoqda. Shuningdek, ishlab chiqarish ko‘lami kengayib, sog‘lom raqobat muhitida sifatli va hamyonbop mahsulotlar xalqimizga yetkazib berilmoqda.



Umuman, keyingi yillarda mahalliyashtirish ko‘lami kengayib, import o‘rmini bosadigan mahsulotlar miqdori oshdi. Bu ishlab chiqaruvchiga ko‘proq samoya keltirib, xaridomning puli va vaqtini tejaydi. Shu tariqa sanoatda kooperatsiya aloqalarini rivojlantirishga keng yo‘l ochilmoqda.

Buni Navoiy viloyati tadbirkorlari misolida ham ko‘rishimiz mumkin. Viloyatda tog‘-kon, energetika, kimyo, metallurgiya sanoati rivojlangan. Gigant korxonalarning har birida minglab ishchi mehnat qiladi. Tabiiyki, ular doim texnika, uskuna va turfa detallar, standartlar jihozlari, metall

konstruksiya kabilarga ehtiyoj sezadi. Xususan, yer osti rudalarini izlab topish, qazib olish, tashish jarayonlarida ko‘plab texnika va jihozlardan foydalaniladi.

Mamlakatimizda keng quloch yozgan tadbirkorlik, yaratuvcchanlik ruhi sabab Navoiyda mashinasozlik korxonalari ham tobora rivojlanib bormoqda. Mazkur sohada yetakchi o‘rinlarda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlaridan biri — “Navpromlitmash” MCHJga qarashli ishchi mehnat qiladi. Tabiiyki, ular doim texnika, uskuna va turfa detallar, standartlar jihozlari, metall

NAVOIYLIK TADBIRKORLARNING MUVAFFAQIYAT FORMULASI: muloqot, imkoniyat va intilish

aloqalarini kengaytirishda ko‘zlangan natijalarga erishib kelyapti. Jumladan, sanoat va mahalliy avtomobil uchun mingga yaqin turdagi havo va moy filtrlari ishlab chiqariladi. Ushbu mahsulotlar Navoiy kon-metallurgiya kombinati va boshqa korxonalardan tashqari yurtimizning barcha hududiga yetkazib beriladi.

— Korxonamizda 300 ishchi-xodim mehnat qilayotgan bo‘lsa, yangi binomiz to‘liq quvvatda ishlay boshlagach, yana 100 ta ish o‘rni yaratiladi, — deydi “Navpromlitmash” MCHJ rahbari Ibrohim Fayziyev. — Prezidentimiz har yili tadbirkorlar bilan uchrashib, taklif va tashabbuslarimizni qo‘llab-quvvatlab keladi. Hatto biz kutmagan darajadagi imkoniyat va imtiyozlar ham taqdim qilinadi. Ana shu e‘tibor natijasida tadbirkorlar ham yuqori ko‘rsatkichlarga erishmoqda. Jumladan, korxonamizda asosan mashinasozlik va tog‘-kon sanoati uchun uskuna va jihozlari tayyorlanadi. Hozir Yevropa standartlariga to‘la javob beradigan mahsulotlar ishlab chiqaryapmiz. Buning yana bir yaxshi tomoni shundaki, boshqa korxonalar bilan yaqindan hamkorlik qilamiz. Kon-metallurgiya sanoatidagi texnikalarda aynan o‘ziga mos shaklda tayyorlash zarur bo‘lgan kamyob detallar ko‘p uchraydi. Bunday ehtiyoj qismlarni ilgari xorijdan maxsus buyurtma orqali sotib olinar. Jarayonda 1-2 oy vaqt o‘tib ketardi. Bitta texnikaning oylab ishlamasligi sanoatda jiddiy seziladi. Hozir aynan shunday detallarni uzog‘i bilan ikki haftada tayyorlab beramiz. Bundan har ikki tomon ham yutmoqda. Muhimi,

korxonamizda navoiylik yoshlar ish o‘rganib, doimiy daromadga ega bo‘lyapti.

Bilim, istiqbolli loyiha va harakat birlashgan joyda rivojlanish bo‘ladi. Ayniqsa, bu jihtlar tadbirkorlik sohasida mujassam bo‘lishi jiti moi-y-iqtisodiy o‘shish uchun mustahkam pillapoya demakdir. Mamlakatimizda ana shunday muhit yaratilgani uchun tadbirkorlarimiz ulkan marjalar sari xotirjam, to‘siqlarsiz va ildam bormoqda. Ana shunday tadbirkorlardan yana biri Baxtiyor Hamroyevdir. U 2007-yilda Navoiy shahridagi “GIDRO-STANKO-SERVIS” korxonasiga asos solgan. Bugungi kunda ushbu korxonada 700 nafarga yaqin ishchi mehnat qiladi.

Davlatimiz rahbari 2022-yilning noyabr oyida Navoiy viloyatiga tashrifi chog‘ida “GIDRO-STANKO-SERVIS” mas‘uliyati cheklangan jamiyati faoliyati bilan tanishib, matusadilarga mahalliyashtirish darajasini oshirish bo‘yicha topshiriqlar bergan edi. Ayni paytda korxonada kooperatsiya orqali 100 dan ortiq qurilma va mingdan ziyod turdagi ehtiyoj qismlar mahalliyashtirilgan.

Ushbu korxona 2007-yildan 2017-yilgacha 50 dan ortiq turdagi mahsulotni mahalliyashtirgan bo‘lsa, hozir ularning tur 500 dan oshdi. Talab va ehtiyojdan kelib chiqib, 2 ming turdan ortiq mahsulot ishlab chiqariladi. Imkoniyatlar va bozor talabini inobatga olib, kelgusida yangidan yangi mahsulotlar ishlab chiqarish ko‘lamini kengaytirish rejalashtirilgan.

— Korxonada minoralar kranlarini ishlab chiqarish asosiy yo‘nalishimizdan biri hisob-

lanadi, — deydi muassasa direktori o‘rinbosari Baxtiyor Rajabov. — Ikkinchi yo‘nalishimiz kon shaxta mexanizmlari, uchinchi yo‘nalish geologik qidiruv ishlari uchun bo‘lgan shtangal va nasoslar ishlab chiqarish. To‘rtinchi yo‘nalish esa mashinasozlikdir. Mahsulotlar yuqori sifatini ta‘minlash uchun yuqori texnologiya asosida ishlaydigan uskunalarini olib kelyapmiz. Hozir 50 dan ziyod zamonaviy uskunamiz bor.

Biznes uchun qulay muhit va yangi imkoniyatlar huddi mablag‘ kabi zarur. Shu bois, 2025-yil avgust oyida mazkur korxonada avtomobil detallarini ishlab chiqaradigan yangi zavod faoliyat boshladi. Hozir korxona mutaxassislari xorijdan keltirilgan texnologiyalardan samarali foydalanish uchun rivojlangan davlatlarda malaka oshirib kelmog‘da.

— Xorijdan texnologiyalarni olib kelishimiz uchun Prezidentimiz bojxona tizimida ham yengillik yaratib berdi, — deydi “GIDRO-STANKO-SERVIS” korxonasi rahbari Baxtiyor Hamroyev. — Imtiyozli kreditlar faoliyatimizni kengaytirishda katta ko‘mak bo‘lmoqda. Zamonaviy uskunalar Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya kabi rivojlangan davlatlardan olib kelib o‘rnatilgan. Qolaversa, ishlab chiqarish jarayoniga malakali mutaxassislar jalb etilgan. Yuqori sifatli, yaxshi ish unumdorligi va katta tezlikda ishlaydigan texnologiya yutuqlarimizga sabab bo‘lyapti. Hozir asosan xorijdan sotib olinayotgan amortizatorlarni ham ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘ymoqchimiz. Dunyo bo‘yicha 8 ta prujina zavodi bor ekan, loyihamiz ishga tushsa, to‘qqizinchi bo‘ladi.



Yuqori tajriba va salohiyatga ega ushbu korxona mamlakatimiz iqtisodiyotiga munosib hissa qo‘shib kelmog‘da. Rahbariyat, injener-muhandislar doimiy izlanishda. Mavjud quvvatlarni modernizatsiya qilish, kengaytirish va yangi turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarishni tashkil etish bo‘yicha aniq maqsad va rejalar tomon ildam bormoqda.

Umuman olganda, mamlakatimiz iqtisodiyotida munosib ulushga ega Navoiy viloyatida mahalliyashtirish, sanoatda kooperatsiya aloqalarini kengaytirish borasidagi loyihalar yuqori samara bermoqda. Natijada shu vaqtgacha importga ketgan katta miqdordagi mablag‘ tejalyapti. Yaratilayotgan yangi ish o‘rinlari esa aholining farovon turmushini ta‘minlamog‘da.

G‘olib ABDUSALOMOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Inson qiynalgan damlarda unga suyanchiq bo‘lish, moddiy-ma’naviy ko‘mak berish xalqimizga xos fazilat. Bu kabi o‘lmas qadriyatlar keyingi yillarda yanada keng tus olyapti. Ayniqsa, o‘zgalar parvarishiga muhtoj yolg‘izlar, nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash, munosib hayot kechirishini ta’minlash, manzilli xizmatlar ko‘lamini kengaytirishda Ijtimoiy himoya milliy agentligi tizimli ishlar qilib kelmoqda.

Hozir viloyatimizda nogironligi bo‘lgan 96,7 ming kishi yashaydi. Keyingi uch yilda 17 mingdan ziyod muhtoj shaxs sifatli protez-ortopediya mahsulotlari hamda reabilitatsiya qilishning texnik vositalari bilan ta’minlandi. Jarrohlik amaliyotidan so‘ng Quvasoy shahrida yashayotgan Abdumutallib Kenjayevning og‘ir xastalik sababli bir oyog‘i amputatsiya qilingan. U avvallari og‘ir va harakatlanish noqulay protezdan foydalangan. Mahalladagi ijtimoiy xodimning arizasiga asosan, hamyurtimizga zamonaviy modulli son protezi olib berildi. Abdumutallib aka bu amaliy yordamdan cheksiz minnatdor. Endi u boshqalar qatori jamiyatimizning faol a‘zosi. Hayoti ham birmuncha yengillashdi.



Farg‘onada o‘zgalar parvarishiga muhtoj 2368 kishi yashaydi. Ularga har jihatdan yordam berish choralari ko‘rilyapti. Har biri uchun yakka tartibda dastur shakllantirilgan holda ijtimoiy xizmatlar yo‘lga qo‘yildi. Belgilangan tartibga muvofiq, barchasi chuqurlashtirilgan tibbiy ko‘rnikdan o‘tkazilib, 1546 nafari qonunchilik hujjatlariga



muvofiq bepul dori-darmon bilan ta’minlanmoqda. “Faol hayotga qadam” dasturi doirasida o‘zgalar parvarishiga muhtoj shaxslarga vaucher asosida 5 turdagi xizmatlar ko‘rsatilishi yo‘lga qo‘yilgan. Hozirga qadar ushbu xizmatlardan foydalanish uchun 10 mingga yaqin shaxsga vaucher taqdim etildi. Ularga kunduzgi qatnov asosida qarab turish, uy sharoitida ijtimoiy-maishiy yordam, tibbiy-ijtimoiy reabilitatsiya, shaxsiy yordamchi xizmati yo‘nalishlarida amaliy yordam berib kelinayotgani oilalarga yangi hayot nafasini olib kirmoqda.

O‘tgan davrda tazyiq va zo‘ravonlikka uchragan 15 ming 169 xotin-qizga himoya orderi berilib, huquqiy, psixologik va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatildi. Shuningdek, nogironligi bo‘lgan 7116 shaxs adaptiv sportga jalb qilindi. 10 ming 268 hamyurtimiz agentlik tasarrufidagi 11 ta shaharlarda sog‘lomlashtirildi.

2025-2026-yillarning kuz-qish mavsumida 118 ming 654 ehtiyojmand oilaga 1 million so‘mdan, joriy

“Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari faoliyati aholini ijtimoiy himoya qilish, ehtiyojmand qatlamlarga kompleks yordamlashish hamda ijtimoiy xizmatlarni qulay va insonparvar tamoyillar asosida yetkazish imkoniyatini beryapti. Natijada aholining ijtimoiy muammolari tezkor, shaffof va samarali hal qilinayotir.

MEHR VA E‘TIBOR – YUKSAK EHTIROM



Saidfarrux ISLOMOV, Ijtimoiy himoya milliy agentligining Farg‘ona viloyati boshqarmasi boshlig‘i

hayiti arafasida 23 mingdan ziyod oilaga oziq-ovqat mahsulotlari tarqatildi. Og‘ir va nogironlikka olib keluvchi kasalliklarga chalingan 1300 bolani davolash va jarrohlik amaliyotini o‘tkazish uchun zarur mablag‘lar yo‘naltirildi. Yetim va ota-ona qaramog‘idan mahrum 654 bola uchun o‘tgan yil so‘ngida 500 hamda bu yilgi Qurbon hayitida 200 dollar miqdorida bank depozitlari shakllantirildi.

“Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari faoliyati aholini ijtimoiy himoya qilish, ehtiyojmand qatlamlarga kompleks yordamlashish hamda ijtimoiy xizmatlarni qulay va insonparvar tamoyillar asosida yetkazish imkoniyatini beryapti. Natijada aholining ijtimoiy muammolari tezkor, shaffof va samarali hal qilinayotir. Binobarin, ijtimoiy yordam turlarini tayinlash va yetkazish, aholi muammolarini o‘rganish, manzilli yordam ko‘rsatish, fuqarolarning uyiga chiqib o‘rginish, ehtiyoj darajasini aniqlash, zarur ijtimoiy xizmatlarning to‘g‘ri va o‘z vaqtida ko‘rsatilishini ta’minlash, psixologik va huquqiy masalalarda bepul maslahat berish, nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun qulay infratuzilma yaratilishini tashkil etish, protezlash, reabilitatsiya va ijtimoiy moslashuvga yordam berish bugunning ustuvor yo‘nalishlaridan.

Qo‘qonlik Hadiyaxon Mamajonova 60 yoshda. Sog‘lig‘idagi muammolar tufayli kundalik turmush ishlarini mustaqil bajarishda qiynaladi. Onaxonning holati “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi mutaxassislari tomonidan xalqaro amaliyotda qo‘llanadigan Bartel va Louton shkalalari asosida baholandi. Natijalarga ko‘ra, Hadiyaxon aya 51 ball bilan “o‘zganing yordamiga ancha bog‘liq” toifasiga kiritildi. Shu asosda ushbu hamyurtimizga yordamchi birlashtirildi hamda haftaning to‘rt kunida 3 soatdan uyda maishiy xizmat, haftaning qolgan uch kunida 2 soatdan tibbiy-ijtimoiy reabilitatsiya xizmatlari ko‘rsatilishi ta’minlandi.

Mehrga muhtoj ayanning ijtimoiy himoya-sini kuchaytirish maqsadida unga har oyda minimal iste’mol xarajatlari uchun moddiy yordam to‘lab berilyapti. O‘z navbatida, mazkur xonadon zamonaviy “aqlii uy” texnologiyasi bilan jihozlandi. Endi onaxon ortiqcha jismoniy qiyinchiliklarsiz, ovoz orqali xonadondagi maishiy jihozlarni masofadan turib boshqarish imkoniga ega.

Viloyatimizda ijtimoiy reyestrga kiritilgan, I guruh nogironligi bo‘lgan hamda mehnatga layoqatli a‘zosi bo‘lmagan oilalar xonadonlarini “yashil” ta’minlash bo‘yicha amaliy ishlar jadal bajarilyapti. Ayni jarayonda Dang‘ara tumanidagi 44 ta mahalla fuqarolar yig‘inida o‘rganish ishlari tashkil etilib, ana shunday ko‘makka muhtoj 16 ta oila aniqlandi. O‘tgan qisqa muddatda 9 ta xonadonning devor va tom qismlarini izolyatsiya qilish, 15 ta xonadonda energiya tejovchi deraza va eshiklar, 6 ta xonadonda geliokollektor o‘rnatish bo‘yicha belgilangan ishlar to‘liq uddalandi. Natijada ehtiyojmand oilalarning energiya sarfini kamaytirish hamda qish mavsumida xonadonlarda issiqlikni ta’minlash holati yaxshilandi.

Agentlik tashkil etilganidan beri o‘tgan vaqtda tizim tomonidan 120 turdagi ijtimoiy xizmat va boshqa turdagi yordam bo‘yicha xizmatlar yo‘lga qo‘yildi. Bundan tashqari, og‘ir vaziyatdagi 81 ming 931 oilaga keys-menejment usulida samarali yordam ko‘rsatildi.

Amalga oshirilgan islohotlar oilalarni mustahkamlash, ijtimoiy yetimlik va zo‘ravonlik holatlarining oldini olish, ayollar, bolalar, keksalar hamda nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquq va manfaatlarini ishonchli himoya qilishda sezilarli natijalar bermoqda. Reabilitatsiya, psixologik qo‘llab-quvvatlash va profilaktika ishlarining kuchaytirilishi inson qadriini ulug‘lashga qaratilgan davlat siyosatining amaliy ifodasiga aylandi.



Xushxabar



ILM KARVONING YOSH PESHQADAMLARI

Boshlanishi 1-betda

Yosh fiziklarning bu muvaffaqiyati yurtimizda katta quvonch bilan qarshi olindi. Musobaqadan qaytgan terma jamoa a‘zolari tantanali ravishda kutib olindi. Diqqatga molik jihati shundaki, Xalqaro fizika olimpiadasi (International Physics Olympiad — IPHO) umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilari o‘rtasida fizika bo‘yicha o‘tkaziladigan dunyoning eng nufuzli bilim bellashuvidir. Olimpiadaga 1967-yilda asos solingan bo‘lib, bugungi kunda u turli qit‘alardagi o‘nlab davlatlardan kelgan iqtidorli yoshlarni yagona ilm maydonida jamlaydi. Unda har bir davlat eng ko‘pi bilan besh nafar o‘quvchidan iborat terma jamoa bilan qatnashadi. Bu galgi olimpiadada esa dunyoning 90 dan ortiq mamlakatidan kelgan chuqur bilimli yosh fiziklar ishtirok etdi.

Ana shunday kuchli raqobat hukm surgan muhitda O‘zbekiston terma jamoasi qat’iyat bilan yuqori natijalar, shubhasiz, mamlakatimizda olib borilayotgan ilm-fan ravnaqi yo‘lidagi sa’y-harakatlarning dunyo sahnidagi munosib e‘tirofidir.

Bu kabi musobaqalarda ishtirok etar ekanisiz, fizika qonunlarini yod bilishning o‘zi kifoya qilmaydi, — deydi 56-Xalqaro fizika olimpiadasi kumush medal sohibi Muhammad Abdulalikov. — Murakkab nazariy masalalarni tahlil qilish, tajribalar o‘tkazish, natijalarni ilmiy asosda izohlash hamda muammolarga mustaqil yechim topish salohiyatini namoyish etishingiz kerak bo‘ladi.

Olimpiada ikki bosqichda o‘tkazildi. Dastlabki turda nazariy bilimlarimiz baholangan bo‘lsa, ikkinchi bosqichda tajriba-sinov amaliyotlarini bajardik. Muhimi, bu biz uchun katta tajriba maydoni bo‘ldi. Kelajakda bilimlarimizni yanada mustahkamlab, bundan-da yaxshiroq natijalar qayd etish, pirovardida esa vatanimiz uchun kerakli kadr, xalqimizga munosib farzand bo‘lish maqsadi yo‘lida o‘z ustimizda tinimsiz ishlashga ilhom baxsh etdi.

Darhaqiqat, bugungi kunda fizika sanoat, energetika, axborot texnologiyalari, sun‘iy intellekt, kosmik tadqiqotlar va zamonaviy muhandislik yo‘nalishlarining ilmiy poydevorini tashkil etadi. Shu bois, ushbu fan bo‘yicha xalqaro maydonda erishilayotgan yutuqlar kelajakda yuqori malakali olimlar, muhandislar va innovatorlar safi kengayishiga xizmat qilishi turgan gap.

Kolumbiyada qayd etilgan mazkur tarixiy natija O‘zbekiston yoshlari dunyoning eng kuchli bilim egalari bilan teng raqobat qila olishini yana bir bor tasdiqladi.

Tom ma’noda ilm karvonining bugungi peshqadamlari tomonidan xalqaro fan olimpiadasida qo‘lga kiritilgan medallar yosh avlodning ilm-fanga bo‘lgan qiziqishini yanada kuchaytirish, yangi iste’dodlarni kashf etish va ularni qo‘llab-quvvatlash yo‘lidagi sa’y-harakatlarni yangi bosqichga olib chiqish uchun ham o‘ziga xos rag‘bat vazifasini o‘tashi shubhasiz.

Asliddin ABDURAZZOQOV, “Yangi O‘zbekiston” muxbiri



Bugunning gapi

Mamlakatimizda farmatsevtika tarmog‘i jadal rivojlanayotgan va keng qamrovli yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda respublikamizda dori vositalari va tibbiy buyumlarni chakana realizatsiya qiluvchi 13 ming 828 ta tashkilot faoliyat yuritmoqda. Shundan 7998 tasi asosiy dorixona, 5830 tasi filial hisoblanadi. Bundan tashqari, dori vositalarini tayyorlovchi 106 ta tashkilot, dori chiqaruvchi 61 ta hamda ulgurji realizatsiya qiluvchi 456 ta korxona mavjud. Bular oddiy raqamlar emas. Tarmoqda butun boshli tizim yaratilganidan dalolat.

Bunday tizimda qonunchilik talablariga qat’iy rioya etilishi, dori vositalarining sifati, xavfsizligi va muomalasi ustidan samarali davlat nazoratini ta’minlash alohida ahamiyat kasb etadi. Zero, farmatsevtika yo‘nalishidagi har qanday qoidabuzarlik odamlar salomatligiga bevosita ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu bois, Farmatsevtika mahsulotlari xavfsizligi markazi tomonidan sohada davlat nazorati zamonaviy yondashuvlar asosida amalga oshirilmoqda. Nazorat tadbirlarining asosiy maqsadi tadbirkorlik subyektlarini jazolash emas, balki qonun ustuvorligini ta’minlash, halol ishlayotgan tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash, sifatsiz va xavfsizligi kafolatlanmagan dori vositalarining muomalaga kirib kelishining oldini olish hamda aholi manfaatlarini himoya qilishdan iborat.

Joriy yilning birinchi yarmida respublikamiz bo‘ylab 634 ta nazorat tadbiri amalga oshirildi, — deydi markaz boshqarma boshlig‘i Doniyorbek Mansurbekov. — Ularning 125 tasi yuqori xavf darajasiga ega deb topilgan subyektlarda o‘tkazildi. Mazkur yondashuv nazorat tadbirlarini tasodifiy emas, balki xavf omillari yuqori bo‘lgan yo‘nalishlarga qaratish imkonini bermoqda. Bu esa bir tomondan halol faoliyat yuritayotgan tadbirkorlarni ortiqcha tekshiruvlardan asrasa, ikkinchi tomondan



qonunbuzarlik sodir etish ehtimoli yuqori bo‘lgan subyektlar ustidan samarali nazoratni ta’minlaydi.

Nazorat tadbirlari davomida aniqlangan qoidabuzarliklar qonunchilikda belgilangan tartibda huquqiy baholandi. Xususan, sud qarorlari asosida 33 ta dorixonaning litsenziyasi bekor qilindi. E’tiborsiz, ushbu holatlarning 6 tasi dori vositalarining davlat tomonidan belgilangan narxlariga rioya qilinmagani bilan bog‘liq. Bundan tashqari, 64 ta dorixona bo‘yicha litsenziyani bekor qilish yuzasidan iqtisodiy sudlarga da’vo arizalari kiritilgan bo‘lib, mazkur ishlar hozirda ko‘rib chiqilmoqda.

Shuningdek, nazorat natijalariga ko‘ra 256 ta dorixonaga nisbatan ma’muriy javobgarlik, 33 ta tadbirkorlik subyektiga nisbatan moliyaviy ta’sir choralari qo‘llanildi. Hozir yana 68 ta korxona faoliyatiga oid to‘plagan hujjatlar qonunchilikka muvofiq tegishli choralarni ko‘rish uchun sudga taqdim qilingan.

Nazorat natijalari sohada faqat kamchiliklar mavjudligini anglatmaydi. O‘rganishlar yakunida 30 ta tadbirkorlik subyektida qonunchilik talablari to‘liq bajarilgani aniqlanib, ularga nisbatan hech qanday huquqiy ta’sir chorasi qo‘llanilmadi. Bu esa halol tadbirkorlar soni ham ortib borayotganini ko‘rsatadi.

Tadbirkorlarga amaldagi qonunchilik talablari yuzasidan muntazam tushuntirishlar berilishi, metodik ko‘mak ko‘rsatilishi va huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan ishlar nazoratning ajralmas qismi hisoblanadi. Zero, qonunbuzarlik sodir etilgandan keyin aniqlashdan ko‘ra, uning oldini olish ancha samarali hisoblanadi.

Farmatsevtika bozori jadal rivojlanib borayotgan bir paytda nazoratning zamonaviy, shaffof mexanizmlarini qo‘llash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu tizim bir tomondan halol tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, ikkinchi tomondan qonun talablarini mensimasdan faoliyat



yuritayotgan subyektlarga nisbatan muqarrar huquqiy choralar ko‘rilishini ta’minlaydi.

Qonun talablariga qat’iy rioya etish, ishonch, sifat va insonparvarlik tamoyili ustuvor bo‘lgan sohada inson hayoti hamda salomatligini ishonchli himoya qilish bosh mezoniga aylanishi muqarrar. Sohada qonun ustuvorligini ta’minlash barobarida aholining dori vositalarini to‘g‘ri tanlash va qo‘llash, ishonchli tibbiy axborotni ajratib olish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi bugun har qachongidan muhim.

So‘nggi paytlarda ijtimoiy tarmoqlar, internet saytlari va ayrim omimaviy axborot vositalarida retepsiz beriladigan dori vositalari reklamasiz tobora ko‘paymoqda. Reklama iste’molchiga mahsulot haqida to‘g‘ri axborot berishi talab etiladi. Bunda fuqarorni chalg‘itib noto‘g‘ri qaror qabul qilishiga sabab bo‘lmisligi lozim. Dori vositalari reklamasiga qo‘yilgan qonunchilik talablari qanday? Qaysi iboralarni ishlatish mumkin emas? Nega dori vositalarini chegirma va sovg‘alar bilan reklama qilish cheklangan?

Reklama hech qachon shifokor maslahatining o‘rnini bosa olmaydi, — deydi markaz bo‘limi boshlig‘i Sabohat Hayitova. — Uning asosiy vazifasi iste’molchiga mahsulot haqida ishonchli va xolis ma’lumot berishdir. Biroq u fuqarorni chalg‘itishi yoki noto‘g‘ri qaror qabul qilishiga sabab bo‘lishi mumkin emas. Shu bois, dori vositalari reklamasiga nisbatan qonunchilikda alohida talab va cheklavlar belgilangan.

Reklamalarda “eng samarali”, “eng xavfsiz”, “100 foiz natija beradi”, “hech qanday nojo’ya reaksiyasi yo‘q” kabi iboralar uchraydi. Bunday iboralar iste’molchida dori vositasi mutlaqo xavfsiz va har qanday holatda ham foyda beradi, degan noto‘g‘ri tasavvur uyg‘otishi tabiiy. Aslida, har qanday dori vositasi organizmga ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatadi. Hatto retepsiz sotiladigan dori vositalari ham ayrim hollarda nojo’ya reaksiyalarni keltirib chiqarishi, boshqa dori vositalari bilan o‘zaro ta’sirga kirishi yoki ayrim bemorlarga tavsiya etilmisligi mumkin. Shu sababli qonunchilikda dori vositasini nojo’ya reaksiyalari mavjud emasligi jihatidan noyob,

eng samarali yoki eng xavfsiz deb reklama qilish taqiqlangan.

Ba’zan reklamalarda dori vositasi “tabiiy mahsulot”, “oddiy biologik faol qo‘shimcha” yoki “kosmetik vosita” sifatida talqin qilindi. Bu ham iste’molchini chalg‘itishi mumkin bo‘lgan usullardan biridir. Chunki dori vositasi, biologik faol qo‘shimcha va kosmetik mahsulotlar turli huquqiy maqomga ega. Ularni ishlab chiqarish, davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, sifatini nazorat qilish hamda qo‘llash tartibi bir-biridan farq qiladi. Shu sababli reklamada ushbu mahsulot turlarini bir-biriga tenglashtirish yoki noto‘g‘ri talqin qilishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Reklamalarda boshqa dori vositalari bilan taqqoslash yoki davolanish natijasini kafolatlash mumkin emas, — deydi S.Hayitova. — Qonunchilik reklamada boshqa dori vositalarini asossiz ravishda yomonlash yoki o‘z mahsulotini ular bilan noto‘g‘ri taqqoslashni taqiqlaydi. Shuningdek, “bu dori sizni, albatta, davolaydi”, “natija kafolatlanadi”, “100 foiz foyda beradi” kabi iboralardan foydalanishga ham yo‘l qo‘yilmaydi. Chunki bir xil kasallikka chalingan ikki bemorning davolanish natijasi ham organizmning individual xususiyatlariga qarab turlicha bo‘lishi mumkin.

Ba’zi reklamalarda dori vositasini qabul qilmaslik inson salomatligi yomonlashishiga olib kelishi mumkin degan taassurot uyg‘otadi. Bu esa fuqarolarda asossiz qo‘rquv paydo qiladi. Ularini shifokor tavsiyasiz dori xarid qilishga undashi mumkin. Shu sababli bunday mazmundagi reklamalarda ham qonun yo‘l qo‘ymaydi.

Retepsiz beriladigan dori vositalari reklamalarida qanday majburiy ogohlantirish bo‘lishi kerak degan haqli savol tug‘ilishi mumkin. Bu ham juda muhim talab hisoblanadi. Har bir reklamada dori vositasini qo‘llashga qarshi ko‘rsatmalar mavjudligi, foydalanishdan oldin yo‘riqnomaga bilan tanishish yoki mutaxassis maslahatini olish zarurligi haqida aniq

ogohlantirish bo‘lishi shart. Mazkur ogohlantirish iste’molchiga dori vositasidan oqilona foydalanish zarurligini eslatadi.

Shuningdek, qonunchilik dori vositalari savdosini rag‘batlantirish maqsadida turli marketing aksiyalarini o‘tkazishga ham cheklov o‘rnatgan. Dori vositasi oddiy iste’mol tovari emas. Shu sababli uni “ikkitasini olsangiz, bittasi bepul”, “sovg‘a yuting”, “bonus oling” kabi marketing usullari orqali targ‘ib qilish sog‘liqni saqlash tamoyillariga zid hisoblanadi.

Mutaxassisning ta’kidlashicha, tibbiyot va farmatsevtika xodimlari uchun mo‘ljallangan reklamalarda bir qator qo‘shimcha talablar qo‘yiladi. Jumladan, bunday reklamalarda faol moddaning nomi, dozasi, nojo’ya reaksiyalari, qo‘llashga qarshi ko‘rsatmalari, boshqa dori vositalari bilan o‘zaro ta’siri, ilmiy manbalarga havolalar hamda reklama faqat tibbiyot va farmatsevtika xodimlari uchun mo‘ljallangani to‘g‘risidagi ma’lumotlar to‘liq keltirilishi lozim. Bu mutaxassislar dori vositasi haqida to‘liq va ishonchli ma’lumot olishini ta’minlaydi.

Dori vositasini tanlashda reklamaga emas, mutaxassis tavsiyasiga, dorining rasmiy yo‘riqnomasiga va ishonchli tibbiy ma’lumotlarga tayanish lozim. Sog‘liq — eng qimmat boylik. Uni asrashning eng to‘g‘ri yo‘li esa reklama va dalariga emas, ilmiy asoslangan tibbiyot hamda qonuniy tartibda muomalaga chiqarilgan dori vositalariga ishonishdir.

Risolat MADIYEVA, “Yangi O‘zbekiston” muxbiri





Nusratullo JUMAXOʻJA,
filologiya fanlari doktori,
professor

Oʻzbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ilk dadil qadamlari ilm-fan sohasida yigʻilib qolgan muammolarni bir zarb bilan bartaraf etishdan iborat boʻldi. Davlatimiz rahbari ilm-fan namoyandalari bilan nufuzli uchrashuv oʻtkazdi va dolzarb vazifalar yechimini koʻrsatdi. Oʻtgan davrda Oʻzbekiston Fanlar akademiyasining qator ilmiy tadqiqot institutlari oliy oʻquv yurtlariga qoʻshib yuborilgan, ayrimlari esa tanazzul yoqasida turgan edi. Jamoatchilik oʻrtasida Fanlar akademiyasi tizimi umuman qisqarib ketadi degan shov-shuv yurardi. Ayniqsa, gumanitar yoʻnalishdagi ilm oʻchoqlari najotga muhtoj edi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida sobiq Pushkin nomidagi Til va adabiyot instituti Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot va Mahmud Koshgʻariy nomidagi Tilshunoslik institutiga ajratilgandi. Bu ulugʻvor ilmgohlar bir hovuchgina ilmiy xodimlardan tashkil topgan eski Til va adabiyot instituti holatiga qaytarildi. Institut tarkibida Oʻzbekiston xalq yozuvchisi Odil Yulqubov rahbarligida mahsuldor ishlagan, 40 dan ortiq sohaga oid atamashunoslik lugʻatlarini yaratib, nashr ettirgan Atamashunoslik qoʻmitasi qisqartirib yuborildi. Necha oy hukumat qarorlarini kutib Moskva ostonalarida sargʻaygan professor Hamid Sulaymon barpo etgan Qoʻlyozmalar instituti kichkinagina Adabiyot muzeyi darajasida qisqartirilgan edi. Bu salbiy hodisalar mustaqillik davrida sodir etilganiga ishonching kelmaydi, odam. Nahotki, kuppa-kunduzi, mustaqillik tantanasi gurkirayotgan yillarda-ya?! Bu mudhish xatolarni kim, qaysi odam amalga oshirdi? Ayni oʻzgarishlar nima sababdan, qaysi maqsadda tezkorlik bilan sodir etilgani hamon anglashilari emas.

Axir bir ilmiy muassasani bunyod etish naqadar mushkul! Barbod etish esa birgina qaror bilan ijro etiladi, vassalom. Goʻyo Husayn Boyqaro mastu alastligida salтанat kelajagi, shahzoda Moʻmin Mirzo qatli uchun farmon tayyorlab, muhr bostirib olinganday. Goʻyo yoʻqlikka yuz tutgan bu ziyo maskanlari Oʻzbekiston Qahramoni Abdulla Oripov satrlari bilan “Bilmadim, qaysi kun, qaysi damdadir mening qismatinga chang soldi sayyodi!” deya faryod chekayotganday. Davlat tili, mustaqillik uchun jangovar kurashgan ziyoli qatlam nechun sukut saqladi oʻsha yillarda? Nega Istiqlol arafasida bir musht boʻlib tugilgan, jumbushiga kelgan ziyolilar jamoasi goʻyo qumga singib ketgan suvdal betaʼsir qoldi? Ha, turgʻunlik, dep sinish yillaridagi karohat, yaʼni umumjamoaaviy karaxtlik yana takrorlandi. Bugun buning sabablarini jamoatchilik yaxshi biladi.

Xayriyatki, Olloh nigohbon! U xalqimizga yangi najotkor davlatboshini nasib etdi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan koʻplab ilmiy tadqiqot institutlari tanazzul yoqasidan qaytarildi. Filologik ilmiy-tadqiqot markazi Alisher Navoiy nomidagi Oʻzbek tili, adabiyoti va folklori instituti sifatida qayta tiklandi va ravnaq yoʻliga qoʻyildi. Vazirlar Mahkamasi

Davlat va jamiyat hamisha yangilanishlarga ehtiyoj sezib yashar ekan. Amalga oshganiga 35 yil toʻlayotgan Istiqlol sharofati bilan yurtimizda yangi davlat va jamiyat barpo etildi. Oʻzbekiston oʻzining dastlabki chorak asrlik hayotida katta rivojlanish yoʻliga chiqib oldi. Shu bilan birga, tarixda misli koʻrilmagan bozor iqtisodiyoti tizimiga oʻtilishi munosabati bilan, iqtisodiyot va maʼnaviyatni baravar ravnaq toptirishga har qancha urinilmasin, qator ijtimoiy muammolar maydonga keldi. Keyingi 10 yillik taraqqiyot bosqichida mana shu muammolarni bartaraf etish bilan birga Yangi Oʻzbekiston strategiyasini amalga oshirish sari dadil va jadal harakatlar kuchayib ketdi.

huzurida Davlat tilini rivojlantirish departamenti tuzildi va uning tarkibida Atamashunoslik komissiyasi joriy etildi. Oʻzbekiston Fanlar akademiyasiga umidli yangi prezident saylandi. Fanlar akademiyasining ahvoli, shu jumladan, har besh yilda bir marta oʻtkazilishi lozim boʻlgan akademiklar saylovi 23 yil nazardan chetda qolib ketgan edi. Oqibatda koʻp fan dargʻalari qartayib, vafot etib, akademik olimlar safi siyraklashib qoldi. Keyingi 10 yilda Fanlar akademiyasida 2 marta saylov oʻtkazildi va akademiklar safi bir qadar toʻldirildi. Bu tadbirlar Prezidentimiz tomonidan donishmandlik va nekinlik bilan amalga oshirildi. Bamioli milliy maʼnaviyatimiz dahosi Alisher Navoiyning quyidagi oʻgitlariga rioya qilindi:

**Birovkim qilsa olimlarga taʼzim,
Qilur goʻyoki paygʻambarga taʼzim.
Hadis oʻlmish nabinidin uyla hodis
Ki, “Olim keldi paygʻambarga voris”.**

Oʻz-oʻzidan ilmiy jarayon ham katta muddat toʻxtab qolgan edi. Bu kadrlar xazirasi kamayishiga olib keldi. Jamiyatda ilmiy salohiyat payasib ketdi. Ilmiy darajali yetuk olimlar oʻz vaqtda oʻzlari munosib boʻlgan ilmiy unvonlarini qoʻlga kiritma olmay qoldi. Oqibatda dotsent, professorlar tarkibi kamayib ketdi. Bir soʻz bilan aytganda, ilm va olimlar oʻz holiga tashlab qoʻyildi. Bu sohada ham Prezidentimiz tashabbuskor va najotkor boʻldi. Hamma viloyat hamda shaharlardagi institut va universitetlarda himoyaviy ilmiy kengashlar ochildi. Magistratura va doktoranturaga koʻplab oʻrin ajratila boshladi. Doktorantlarga katta, bir oylik miqdoridagi stipendiya tayinlandi. Ilmiy tadqiqotlarning himoyasi yoʻlidagi byurokratik toʻsiqlar mumkin qadar bekor qilindi. Dissertatsiya yoqlash osonlashtirildi.

Pensiya yoshigacha xizmat qilib qoʻygan ziyolilar bir necha tahlikali yillarni boshlaridan kechirishlariga toʻgʻri keldi. Ish beruvchilar pensiya yoshidagi ziyolilarga ish bermay qoʻydi. Oqibatda 60 yoshdan oshgan, bilim xazirasi butun va tafakkuri pishib yetilgan talay professor-oʻqituvchilar ish joylarini tark etishga majbur boʻldi. Ularning baʼzilari ilmiy faoliyatlarini mustaqil davom ettirsalar-da, aksariyati ilmdan chiqib ketdi. Holbuki, bu davrdagi pensiya yoshidagi ziyolilarni kuchdan qolgan, qartaygan, tafakkur qobiliyati pasaygan, ishchanlik va mahsuldorlik qobiliyati zaiflashgan deb qarash notoʻgʻri edi. Aksincha, olatasir, oʻta murakkab,

ziddiyatli oʻtish davrida shakllangan yosh va oʻrta yoshli mutaxassislarga nisbatan 60 yoshli ziyolilar mafkuraviy jihatdan yetuk, qatʼiyatli, harakatchan, intizomli, mehnatda toblangan, tafakkur va ijodkorlikda pishib yetilgan, ilmda va oʻqituvchilikda mahsuldordirlar.

Bu avlodning yana bir tomoni qadrlikli, u ikki asr — yigirmanchi va yigirma birinchi asr muhitini boshidan kechirayotgan, ikki ijtimoiy-siyosiy tuzum — sotsializm va bozor iqtisodiyoti tajribalarida sinalgan, dunyoqarashi kengaygan, mustaqillik neʼmatlarining qadriga koʻproq yetadigan suloladir. Shavkat Mirziyoyev iqtidorga kelganidan keyin yetuk professor-oʻqituvchilar yana taʼlim va oliy taʼlim dargohlariga ishga chaqirib olindi. Ularning mahsuldor ilmiy-maʼrifiy faoliyatlarini davom ettirishlariga shart-sharoit yaratildi. Bu ziyolilarga katta eʼtibor, ilm va olimni qadrlash, insoniylik namunasi boʻldi. Shu bilan birga, ilm-fan oʻchoqlarining bagʻri yana zukko, sermahsul olimlarga toʻldi. Ilm-fanning gurkirab rivojlanishiga katta imkoniyat yaratildi.

Ijodiy mehnat qochogʻiga qaytgan salohiyatli olimlar keyingi oʻn yilda qator ilmiy kitoblar, magʻzi toʻq maqolalar yaratishga muvaffaq boʻldi. Ilmiy-ijodiy faollik insonning umrini ham uzaytirar ekan. Misol tariqasida ulugʻ bir allomaning taqdirini keltirish mumkin. Filologiya fanlari doktori, professor Hamidjon Homidiy tabarruk 90 yoshigacha talabalarga dars berdi. Uning mehnat intizomi, qirq yashar navqiron yigitlarday ixcham qomati bilan qirchillab yurishi, ochiq chehraligi, talabalarga mazmunli dars oʻtishi, chuqur bilim berishi, sayqal topgan notiqlik mahorati, adabiyot durdonalarini yoddan aytib saboq beruvchi komil hofizasi hamisha yosh muallimlarga oʻrnak edi. Har yili nufuzli nashriyotdagi hamda matbuot sahifalari orqali yangi kitob va maqolalar eʼlon qilib, yoshlarga ibrat boʻlib yurardi. Oqsoqol professorning xatti-harakatlari va nuroniy chehrasida hayotsevarlik, kelajikka ishonch ruhi balqib turardi. Vafotidan uch kun ilgari oʻquv yilidagi darslarini yakunladi. Darsdan chiqib, kafedraga kirarkan, “Men oxirgi darsimni oʻtib chiqdim”, deya shukronalik bildirdi. Evohki, bu ustoz murabbiyning semestrdragina emas, balki hayotidagi soʻnggi sabogʻi boʻlib qoldi. Aytmoqchimizki, allomaning umri barakali boʻlishida ijodiy ishlarning zavqi va lazzati, maʼrifiy jamoaning qaynoq tafti, shogird tayyorlashning shavqi hamda masʼuliyati ham aha-



miyatga ega boʻldi. Aks holda, ziyoli ishsiz qolsa, jamoadan uzilsa, u tushkunlikka yuz tutishi, ilm, ijod va dunyo ishlaridan sovuishi, boʻshashishi, jismoniy-aqliy salohiyatini erta yoʻqotishi ham tabiiy hol boʻlardi.

Prezidentimizning ziyoliparvar qarori bilan falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga ega boʻlgan olimlarga 30 foizgacha, fan doktorlariga 60 foizgacha qoʻshimcha (ustama) haq belgilanishi nur ustiga nur boʻldi. Dotsent va professorlar 15-20 million soʻm, ayrim xususiy universitetlarda undan ham koʻproq oylik olib ishlashga muayassar boʻldi. Bu oʻqituvchi zoti taqdirida tarixda koʻrilmagan farovonlik deya tan olinsa, toʻgʻri boʻlardi nazarimda. Professor-oʻqituvchining qoʻli pul koʻradigan, u bemaol mashina olish, xususiy uy-joy barpo etish, chet ellarga safar qilish, oromgohlarda dam olish, qiynalmasdan toʻylar qilish, farzandlarini eson-omon voyaga yetkazib, yaxshi bogʻcha, maktab va oliy oʻquv yurtlarida oʻqitish, kitob va maqolalarini xorijiy mamlakatlarda ham chop ettirish imkoniyatiga ega boʻldi. Ushbu imtiyoz ilmiy-maʼrifiy ijod ahlining ilhom va ragʻbat olib, yanada mahsuldor faoliyat koʻrsatishiga muhim omil boʻldi.

Bundan oʻn yil avval ishlaydigan pensionerlar pensiya pulining yarmisini olardi. Pensiya pulini naqd olish muammo edi. Yangi hokimiyat xalq tasarrufiga yetkazish rejalarishtirgan. Bu ham ziyolilarga katta hamiyat timsoli. Chunki koʻp yillik mashaqqatli ijodiy mehnat natijasida yaratilgan adabiy meros matnlarini koʻngildagidek toʻliq nashr etish har qanday ziyoliga nasib etmayotgan edi. Tadqiq etilmay, qoʻlyozmalar xazinasida sargʻayib yotgan buyuk adabiy yodgorliklar koʻp edi.

Shaxsan kamina ham Shermuhammad Munis Xorazmiyning “Munis ul-ushshoq” devonini katta mablagʻ talab qilinishi sababli nashr ettira olmay amalda dim. Ellik yillik mehnatim singgan ushbu mukammal devon qoʻlyozmasi 2025-yili “Oʻzbek adabiyoti xazinasini”ning 37-jildida saflarida

goʻzal rumusda, munaqqash muqovada olam yuzini koʻrdi.

Ilm va ijod ahli uchun qalam haqi eng mushkul muammolardan biri edi. “Oʻzbek adabiyoti xazinasidan” majmuasining muassislari mualliflarga qalam haqini kechiktirmasdan, oʻz vaqtda toʻlanishini taʼminlamogʻda. Oʻzi istagan adabiy merosi shaxsiy qiziqishi bilan tadqiq etsa, buni hukumat oʻz tashabbusi bilan orzudagiday sifatda nashr etsa, yana buning ustiga arziqli qalam haqi ham toʻlasa, ziyoli uchun bundan ortiq baxt bormi? “Oʻzbek adabiyoti xazinasidan” 200 tomligida hali dunyo yuzini koʻrmagan, birinchi marta zamonaviy yozuv va andozada tartib berilgan koʻplab nodir yodgorliklar chop etilmogʻda. Bular milliy maʼnaviyatimiz va maʼrifatimiz uchun juda zarur manbalar.

Alisher Navoiy nomidagi Xalqaro jamoat fondining taʼsis etilishi ham ilm-maʼrifat va ziyolilar jamoasi uchun katta imkoniyatlar ochib berdi. Mazkur fond har yili buyuk mutafakkir Alisher Navoiy tavallud kunlarida Xalqaro simpozium oʻtkazadi. Simpoziumlarga jahondagi 20 dan ortiq mamlakatlardan atqoli sharqshunos, navoiyshunos olimlar kelib ishtirok etishmogʻda. Simpozium materiallari salmoqli va sifatli ilmiy toʻplam holida chop etilib, umumxalq va umumjahon manfaatlari uchun internet tarmoqlaridan ham oʻrin olmogʻda. Alisher Navoiy nomli Xalqaro jamoat fondi nufuzli olimlar, shoir va yozuvchilar, jamoat arboblari ishtirokida jahonning tarqoqlik uchun mamlakatlariga ilmiy-maʼrifiy ekspeditsiyalar tashkil etib, safar mobaynida Turkiya, Eron mamlakatlarini, Yevropa mintaqalarini muzeylaridan maʼnaviy merosimiz va Navoiy ijodiga oid nodir qoʻlyozmalar hamda boshqa turdagi ashvoviy manbalarni koʻlga kiritib, milliy merosimiz xazinasini boyitmogʻda, yangi-yangi ilmiy tadqiqot obyektlarini vujudga keltirmogʻda. Fondning Alisher Navoiy ijodiyotini oʻrganish sohasidagi tahsinga sazovor ishlarini eʼtirof etmoq lozim. U ilmnining mohir tashkilotchisi sifatida ham oʻzining faoliyatini rivojlantirmogʻda.

“Mustaqillik davri oʻzbek navoiyshunosligi” 30 tomlik ilmiy tadqiqotlar toʻplamining yaratilishi hamda eng sifatli qogʻozlarda, koʻrkam formatdagi muqovalarda nashr etilishi Respublika maʼnaviy hayotida va navoiyshunoslik ilmi taraqqiyotida ulkan umumlashtiruvchi manba boʻldi. Unda Oʻzbekiston mustaqilligi davrida oʻzbek olimlari tomonidan yaratilgan ellikka yaqin yangi va ilmiy teran tadqiqotlar qamrab olingan. Ushbu tadqiqotlar majmuasi mamlakatimiz kutubxonalari, oliy oʻquv yurtlari, maʼnaviy-maʼrifiy tashkilotlari hamda olimlarimizning shaxsiy kutubxonalardan muhtasham oʻrin

egalladi. Boshqacha aytganda, mustaqillik davri oʻzbek navoiyshunosligining asl boyliklari el-yurt tasarrufiga topshirildi. Istagan yurtdoshlarimiz bu ulkan ilmiy-adabiy manbadan bemaol bahramand boʻlishlari mumkin.

2025-yili Fond navoiyshunoslik sohasida yangi ulugʻvor loyiha boʻyicha ish boshladi va uni bu yil yakunlash arafasida turibdi. Bu Alisher Navoiy merosining 100 tomlik majmuasini yaratish loyihasidir. Bilmagani odam Navoiyning 20 tomlik Mukammal asarlar toʻplami, 10 tomlik Toʻla asarlar toʻplami yaratib chop etilgan, yana qanday qilib 100 tomligini yaratish mumkin, deya hayratlanishi mumkin. Gap shundaki, Navoiy asarlarini aslyatda keng xalq ommasini tushunmaydi. Maqsad Navoiyning xalqqa, xalqni Navoiyga yaqinlashtirishdir. 100 tomlik majmuada Navoiy merosining har bir misrasi va har bir nasriy jumlasiga zamonaviy oʻzbek tilida nasriy bayon berish koʻzda tutilgan. Bunda Navoiy adabiy merosi istisnosiz toʻla qamrab olinmogʻda. Bunday ulkan va murakkab loyihani qisqa muddatda amalga oshirish juda mushkul ish, albatta. Buning uchun Fond mamlakatdagi yetakchi navoiyshunoslarni atrofida jipslashtirgan. Ish olimlarning salohiyati, ixtiyoriga qarab batartib taqsimlangan. Ishning 50 foizdan ortiq qismi amalga oshdi deb hisoblash mumkin. Bunday noyob tadqiqotning koʻlamini aniq tasavvur qilish uchun bir misol keltirishimiz mumkin. Birgina “Xamsa” tarkibidagi “Saddi Iskandariy” dostonining aslyati va nasriy bayoni 9 tomi tashkil etdi. Navoiy 100 tomligining 30 dan ortiq jildi yil boshida, ulugʻ shoir tavallud kunlarida oʻtkazilgan navoiyshunoslar Xalqaro forumida taqdimot qilindi.

Navoiy 100 tomligining oʻziga xos ilmiy yangiligi, hammabopligi va real amaliy ahamiyatga egaligi shundaki, masalan, gʻazal janrini oladigan boʻlsak, har bir sahifa 3 tarkibidan iborat boʻlib, alohida ustunlarda gʻazal matni, uning nasriy bayoni, ustunlar pastida esa 10-15 ta soʻz lugʻati ilova qilinadi. Qizigʻi shundaki, har misraning yonida uning nasriy bayoni sodda va tushunarli tilda oʻz ifodasini topadi. Sahifa pastida tushunilishi qiyin boʻlgan soʻzlar lugʻati ham yordamga tayyor. Navoiyshon misra mazmunini toʻliq tushunishi taʼminlangan. Tasavvur qiling, Navoiy bepoyon merosi toʻliq mana shu tartibda sharhlab chiqiladi. Bu 100 tomlikli mutolaa etgan butun xalq, yaʼni har bir fuqaro navoiyni tushunadigan boʻlishi mumkin. Bugina emas, 100 tomlikning elektron shakli internet tarmogʻiga ham joylashtiriladi. Demak, undan butun oʻzbek xalqigina emas, balki jahon xalqlari ham foydalanishlariga imkoniyat paydo boʻladi. Oʻtmishda Navoiy asarlarining podstrochniklari (yaʼni taglama matnlari, nasriy bayonlari) mavjud boʻlmagan sharoitlarda tarjimonlar ne mashaqqatlar bilan shoir asarlarining rus tilidagi 10 tomligini yaratib, nashr ettirgan. Navoiy 100 tomligi shoir asarlarini jahonning istalgan tiliga tarjima qilish uchun ham podstrochnik vazifasini oʻtay oladi. Alisher Navoiy 100 tomligining vujudga kelishi ham ilimga, maʼrifatga, ziyolilarga yangicha eʼtiborning mahsulidir.

Davlatimiz rahbarining ziyolilarga yaratgan sharoitlari, ayni paytda ulardan ham fidoyilikni va munosiblikni talab etadi. Zotan, milliy til va adabiyotni mukammal oʻrganish, oʻrgatish, uning dunyo miqyosida oʻrganilishiga muvaffaq boʻlish milliy davlatchilgimiz va Prezidentimiz siyosatining tarkibiy qismiga aylangan. Buning zamirida milliy madaniyatni ravnaq toptirish, yangi Oʻzbekistonda ziyolilar jamiyatiga aylantirish maqsad-muddasini yetitibdi. Milliy oʻzlikka xavf-xatarlar turli koʻrinishda xuruj qilayotgan hozirgi zamonda, ayniqsa, filolog olimlar texnologik taraqqiyotning eng yangi yutuqlaridan foydalanib, millatning ruhi, oʻzligining asosi boʻlmish oʻzbek tilining nufuzini mamlakat va jahon uzra yanada oshirish boʻyicha katta-katta fundamental va amaliy tadqiqotlar yaratishi, ilm yoʻlidagi Prezidentimizdan oʻrnak olib, hormay-tolmay mehnat qilishi maqsadga muvofiqdir.

“Yangi Oʻzbekiston” va “Правда Востока” gazetalar tahririyati” DM	Bosh muharrir: Salim DONIYOROV	Tahririyatga kelgan qoʻlyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga “SHARQ” NMAK masʼul. Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.	Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan roʻyxatga olingan. Nashr indeksi — 236. Buyurtma G-746. 29609 nusxada bosildi. Hajmi — 3 taqoq. Ofset usulida bosilgan. Qogʻoz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda.	Navbatchi muharrir: Risolat Madiyeva Musahhih: Malohat Mingboyeva Dizayner: Zafar Roʻziyev Manzillimiz: 100060, Toshkent shahri, Shahrisabz koʻchasi, 85-uy
MUASSIS: Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi				
Qabulxona: (71) 233-56-33 Eʼlonlar boʻlimi: (71) 233-70-98	E-mail: info@yuz.uz Web-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05	Devonxona va ishonch telefoni: (71) 233-56-60	“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etiladi. Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon koʻchasi, 41-uy.	